

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

JO‘RAYEV FARRUX DO‘STMIRZAYEVICH

**AGROKLASTER TIZIMINING OPTIMAL MODELLARINI ISHLAB
CHIQISH METODOLOGIYASI
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) экономических наук

Contents of the dissertation abstract of the doctor of economics (DSc)

Jo‘rayev Farrux Do‘stmirzayevich

Agroklaster tizimining optimal modellarini ishlab chiqish metodologiyasi (Qashqadaryo viloyati misolida) 3

Жураев Фаррух Дустмирзаевич

Методология разработки оптимальных моделей агрокластерной системы (на примере Кашкадарьинской области) 41

Juraev Farrukh Dustmirzaevich

Methodology for developing optimal models of the agrocluster system (on the example of the Kashkadarya region)..... 81

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 86

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

JO‘RAYEV FARRUX DO‘STMIRZAYEVICH

**AGROKLASTER TIZIMINING OPTIMAL MODELLARINI ISHLAB
CHIQISH METODOLOGIYASI
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Iqt837 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi(www.urdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Rasmiy opponentlar:

Sauxanov Jonibek Kaziyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Otajanov Umid Abdullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Allayorov Piratdin Otaboyevich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "_____" soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: arm@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" kuni tarqatildi.

(2025-yil "_____" dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik muvozanatni ta‘minlash va barqaror iqtisodiy o‘shirish uchun ustuvor strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lib, aholi sonining ortishi, global iqlim o‘zgarishlari, resurs taqchilligi, texnologiya olamidagi tez sur‘atli o‘zgarishlar keltirib chiqarayotgan yuklamalar tarmoqda moslashuvchanlik, intensiv yondoshuv, innovatsion ishlab chiqarish xususiyatlarini qisqa muddatda o‘zlashtirish asosida mahsulot hajmini oshirishni taqozo etmoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ning ta‘kidlashicha “Qishloq xo‘jaligi tizimining salbiy oqibatlari, ya‘ni o‘tgan yillarda barqarorlik tamoyillariga to‘g‘ri kelmaydigan faoliyat va amaliyotlar natijasi iqlim o‘zgarishiga, tabiiy resurslarning degradatsiyasiga va sog‘lom ovqatlanishning iqtisodiy jihatdan imkonsizligiga olib kelmoqda”¹. Yana, FAO ma‘lumotlariga ko‘ra, “qishloq xo‘jaligining innovatsion rivojlanish darajasi 10 foiz atrofida, pastligicha qolmoqda”². Mazkur sharoitda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish dolzarbligi yanada oshmoqda.

Global ko‘lamda qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirishga bo‘lgan e‘tibor ortib borishi fonida, klasterlashtirish amaliyotini joriy etish, innovatsion agroklastlar ulushini oshirish jadallashmoqda. Agrar tarmoqlarda klasterli ishlab chiqarish Yevropa mamlakatlarida 43 foizni, Xitoyda 55 foizni, AQSHda 62 foizni tashkil etadi³. Innovatsion agroklastlar rivojlanganlik darajasi reytingida dastlabki 100 talikda AQSh 27 foiz, Xitoy 23 foiz, Germaniya 12 foiz, Fransiya Yaponiya, Angliya va Kanada 5 foiz klasterlar soni ko‘rsatkichi bilan yetakchilik qilmoqda⁴. Agrosanoatni barqaror rivojlantirishda innovatsion klasterlarni shakllantirish, bu asosida yashil investitsiyalar, raqobatbardosh toza mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, resurs tejamkor faoliyatni kengaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash darajasi oshmoqda.

Yangi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish, xom ashyo, ishlab chiqarish, mahsulot bozori, iste‘molchi zanjirida qo‘shilgan qiymat o‘shirishni ta‘minlash, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ulushi hamda, hududlar iqtisodiy salohiyatining o‘shirishida agrosanoat tarmoqlari ahamiyatini oshirish borasida keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda va istiqbolli loyihalar amaliyotga joriy etilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shirishini kamida 5 foizga yetkazish” ustuvor yo‘nalishdagi maqsadlardan biri hisoblanadi⁵. Hududlarda 110 ta meva-sabzavotchilik kooperatsiyalari va 35 ta g‘allachilik klasterlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish asosida klasterlarning meva-sabzavot va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini hamda eksportdagi ulushini 2

¹ <https://openknowledge.fao.org/items/ed1c61e7-1575-4f58-b9b7-eac7b83c3517>

² <https://www.fao.org/common-pages/search/en/?q=innovation+index>

³ <https://www.fao.org/faostat/en/#data/QI>

⁴ <https://fundamental-research.ru/en/article/view?id=43135>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga 2-ILOVA / (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son)/ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

baravarga va ish o‘rinlarini 3 baravarga oshirish vazifasi belgilangan⁶. Natijada paxta-to‘qimachilik klasterlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, hamda uzumchilik va vinochilik sohasini barqaror rivojlantirish, xom ashyo bazasini kengaytirish va eksport hajmini oshirish, agrar sektorni zamonaviy, resurs tejamkor texnikalar bilan ta‘minlashni rag‘batlantirish bo‘yicha yangi mexanizmlar joriy etildi⁷.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish, tarmoqning investitsiya jozibadorligini, organik dehqonchilik ulushini, qayta ishlash, xususan tayyor mahsulot hajmini oshirish, xalqaro mahsulot bozorlarida raqobatbardosh agrosanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish, bunda agroklaster tizimini rivojlantirish borasida davlat dasturlari asosida ilmiy-amaliy loyihalarga e‘tibor kuchaymoqda. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy jarayonlarga, jumladan ekonometrik tadqiqotlarga ustuvorlik berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevral PF-6159-son “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi, 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi, 2023-yil 12-dekabrdagi PF-205-son “Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2023-yil 15-dekabrdagi PQ-391-son “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-son “O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 6-avgustdagi PQ-283-son “Markaziy Osiyo xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2024-yil 30-dekabrdagi PQ-465-son “Qishloq xo‘jaligi maydonlaridagi qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalangan holda mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-iyundagi “Uzumchilik, bog‘dorchilik, issiqxona xo‘jaliklarini yurituvchi va vinochilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi subyektlarni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 27-oktabrdagi 567-son “Issiqxona xo‘jaliklari va meva-sabzavotlarni eksport qiluvchi korxonalarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2024-yil 25-noyabrdagi VMQ-783-son “Sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy

⁶ https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144

⁷ <https://www.agro.uz/charts/>

rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.⁸ Qishloq xo‘jaligini klasterlashtirish, agrosanoatni rivojlantirish, agroklastar tarmoqlarini tizimlashtirish, agroklastar tizimini innovatsion rivojlantirish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish, yangi nazariy yondoshuvlar, zamonaviy ekonometrik usullarni ishlab chiqish va shu asosida iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni keng ko‘lamli tadqiq etish bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi oliy ta‘lim muassalari, ilmiy markazlari va tashkilotlarida, xususan, Garvard universiteti, Stenford universiteti, Massachusetts texnologiya instituti (AQSh), Myunxen texnika universiteti, Bonn universiteti (Germaniya), Padua universiteti (Italiya), Kembrij universiteti, London iqtisodiyot va siyosat fanlari maktabi (Buyuk Britaniya), Xelsinki universiteti (Finlandiya), Sepuluh texnologiya instituti (Indoneziya), Wageningen universiteti (Niderlandiya), Tsinghua University (Xitoy), Tokio universiteti, Kobe universiteti (Yaponiya), O‘zbekiston Respublikasi prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Hozirgi davrda agroklastar tizimini rivojlantirishning ekonometrik modellarini ishlab chiqish, yangi innovatsion yondoshuvlarni amalga oshirish va ekonometrik usullarni takomillashtirish asosida iqtisodiy jarayonlarni tizimli, keng qamrovli tahlil etish bo‘yicha jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida ko‘plab, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: AQShning FFCM modeli (model klasterlashtirish samaradorligini innovatsiya, inson kapitali, investitsiya, texnologiya, energiya omillariga bog‘laydi, u besh omil modeli sifatida mashhur), Germaniyaning SNKM modeli (model investitsion iqtisodiy jozibadorligini hududiy innovatsion tizim, hududiy innovatsion tarmoq va hududiy klaster bilan shakllantiradi); Italiyaning CIM modeli (model innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga e‘tibor qaratgan holda klaster siyosatini rivojlantirishga strategik yondashadi); Xitoyning AIM modeli (modelda klaster rivojlanishi mintaqaviy iqtisodiy o‘shishni belgilaydi, hududiy innovatsion muhit esa ekotizim sifatida shakllanadi); Yaponiyaning CCM modeli (model texnologik jihatdan murakkab, yuqori texnologiyaga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan); Finlyandiyaning HTMCM modeli (model

⁸ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida tayyorlandi: Porter. M. *Competitive Strategy*. A Division of Simon & Schuster Inc 1230 Avenue of the Americas New York, NY 10020. 1990. – 422 pages, Silva S.G., et al. *Agricultural clusters and poverty in municipalities in the Northeast Region of Brazil: A spatial perspective*. *Journal of Rural Studies*, Volume 92, 2022, Pages 189-205, Putri D.L., et al. *Agro Industrial Cluster Development Strategy Coastal Region District Banyuwangi*. *Procedia Earth and Planetary Science*, Volume 14, 2015, Pages 136-143, Anh Ph.T., et al. *Towards eco-agro industrial clusters in aquatic production: the case of shrimp processing industry in Vietnam*. *Journal of Cleaner Production*. Volume 19, Issues 17–18, 2011, Pages 2107-2118, Otsuka K., Ali M. *Strategy for the development of agro-based clusters*. *World Development Perspectives*, Volume 20, 2020, 100257, Li J., Li X. *Coopetition in social commerce: What influences livestreaming knowledge sharing in agricultural clusters*. *Electronic Commerce Research and Applications*. Volume 64, 2024, 101383; Ara T., et al. *An energy efficient selection of cluster head and disease prediction in IoT based smart agriculture using a hybrid artificial neural network model*. *Measurement: Sensors*, Volume 32, 2024, 101074, Priyanka B.H.D.D., et al. *Developing a region-based energy-efficient IoT agriculture network using region-based clustering and shortest path routing for making sustainable agriculture environment*. *Measurement: Sensors*, Volume 27, 2023, 100734, Gheisari M., et al. *An efficient cluster head selection for wireless sensor network-based smart agriculture systems*. *Computers and Electronics in Agriculture*, Vol 198, 2022, 107105, Завьялов Д.В. *Агропромышленные кластеры: проблемы и ограничения развития*. *Российское предпринимательство*. Том 18, Номер 17, 2017. – 2541- 2551

agrosanoat mahsulotining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi bilan ushbu tarmoqning jahon savdosidagi ulushi o'rtasidagi nisbat mezonini bo'yicha ishlaydi); Niderlandiyaning IAM modeli (model 1/2 dan 2 tamoyiliga soslanadi, ya'ni resurs yarimi va ishlab chiqarishning karrasi); hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti); agroklasterni innovatsion rivojlantirishning ELM modeli, barqaror rivojlantirishning integral ko'rsatkich modeli, mintaqa agroklasterning iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish mexanizmi hamda agroklasterni tizimida tarmoqlararo ishlab chiqarish salohiyati indeksi ishlab chiqilgan (Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM).

Jahonda agroklasterni tizimni optimal modellar asosida rivojlantirish bilan bog'liq bir qancha ustuvor yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda: innovatsion agroklasterni shakllantirish jarayonlarini modellashtirish, innovatsion rivojlantirishning optimal modellarini ishlab chiqish usullarini takomillashtirish, resurslardan foydalanish jarayonlarini optimallashtirish, ishlab chiqarish intensivligiga asoslangan ekonometrik modellashtirish, klasterlashtirilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning istiqbolli ko'rsatkichlarini prognozlashtirishning optimal modellarini ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiyot tarmoqlarini, iqtisodiyot korxonlarini, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishning nazariy asoslari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, agroklasterni tizimining optimal modellarini ishlab chiqish metodologik asoslarini modifikatsion kengaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy-matematik, statistik va ekonometrik modellashtirish uslubiyotini takomillashtirish, agrosanoatni innovatsion rivojlantirish jarayonlarini tizimli tahlil qilish apparatlarini ishlab chiqish masalalari xorijiy olimlardan A.Marshall, J. Jeykobs, F. Aidalo, M. Porter, D.Foray, R.Florida, E.Galvez-Nogales, D.L.Putri, R.M.Petrescu-Mag, M.O.Olomu, S. Verma, A.Z. Zeleke, A. Garrido, Sh. Bo, R. G. Jesus, M. Singh, X. Kim, E.Ahumada-Tello⁹ va boshqalarning ilmiy

⁹ Marshall A. Principles of Economics. Eighth Edition. Macmillan and Co 8th ed. London: 1890. – 731 p. / <http://digamo.free.fr/marshall190.pdf>; Jacobs, J. Cities and the Wealth of Nations: Principles of Economic Life. Random House, 1984 - 257 pages; Aydalot, Ph. L' Aménagement du Territoire en France: Une Tentative de Bilan. L' Espace Géographique. 7(1978). 245-253.; Porter, M. The Competitive Advantage of Nations. A Division of Simon & Schuster Inc 1230 Avenue of the Americas New York, NY.1990. – 422 pages / <http://ijevanlib.ysu.am/wp-content/uploads/2023/02/Michael-E.-Porter-Competitive-Strategy.pdf>; Foray, D. Smart specialization strategies as a case of mission-oriented policy – a case study on the emergence of new policy practices. Industrial and Corporate Change, 2018, Vol. 27, No. 5, 817–832 / doi: 10.1093/icc/dty030; Richard Florida, The Great Reset: How New Ways of Living and Working Drive Post-Crash Prosperity. Harper Collins US; Random House Canada, 2010. Galvez-Nogales E. Agro-based clusters in developing countries: staying competitive in a globalized economy. Food And Agriculture Organization Of The United Nations. Rome, 2010. – 19 p.; Putri D.L., et al. Agro Industrial Cluster Development Strategy Coastal Region District Banyuwangi. Procedia Earth and Planetary Science 14 (2015) 136 – 143; Petrescu-Mag R.M., et al. Mapping the research landscape of meat replacers in Romania: A bibliometric analysis and a Cross-Cluster Synergy Model of emerging trends. Future Foods. 2024, 100619; Olomu, M.O., et al. The adoption and impact of Internet-based technological innovations on the performance of the industrial cluster firms. Journal of Economy and Technology. Vol 1, 2023, Pages 164-178; Verma S., et al. Cluster bean: From garnering industrial importance to molecular research interventions for the improvement of commercially viable traits. South African Journal of Botany. Volume 178, 2024, Pages 307-317; Contribution of cluster farming to household economy in Ethiopia: A systematic review. Zeleke, A.Z., Wordofa, M.G. Contribution of cluster farming to household economy in Ethiopia: A systematic review. Agricultural Systems. Volume 221, 2024, 104146; Garrido, A., et al. A multi-echelon globalized agro-industrial supply chain under conditions of uncertainty: A two-stage fuzzy-possibilistic mixed-integer linear programming model. Expert Systems with Applications. Volume 270, 25 2024, 126569; Bo, Sh., et al. Military investment and the rise of industrial clusters:

asarlarda tadqiq etilgan.

Qishloq xo'jaligini klasterlashtirish, innovatsion klasterlarni shakllantirish, hududlarning klaster modellarini ilmiy asoslash, agrosanoatni klaster tizimlari asosida rivojlantirish, agroklasterni tarmoqlarida mehnat unimdorligi va resurs samaradorligini oshirish masalalari MDH mamlakatlari olimlaridan A.V. Babkin, B.A. Voronin, A.V. Bogoviz, I. M. Bortnik, N. V. Mordovchenkov, L. M. Goxberd, R. B. Shestakov, V.V. Lokosov, V.V. Kolmakov, O. G. Charykova, A. A. Kocherbayeva, B. Mitskevich va P. Mitskevichlar, R. K. Izmailov, A.N.Seryodkin¹⁰ va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida keltirilgan.

Agrar tarmoqlarida klasterlarni tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, klaster siyosatining ustuvor jihatlarini ilmiy asoslash, hududlar qishloq xo'jaligida klasterli ishlab chiqarishni rivojlantirish metodologik asoslarini takomillashtirish, agro tizimni optimallashtirish masalalari mamlakatimiz olimlaridan T.Sh.Shodiyev, S.V.Chepel, B.N. Navruz-Zoda, B.B.Berkinov, A.J.Abdulloyev, T.X.Farmanov, D.O.Matyoqubova, G.T. Ismoilova, G.Zaxidov, O.M.Kasimov, R.D.Dustmuratov¹¹ va

Evidence from China's self-strengthening movement. *Journal of Development Economics*. Volume 161, 2023, 103015; Jesus R.H., et al. Forming clusters based on strategic partnerships and circular economy for biogas production: A GIS analysis for optimal location. *Biomass and Bioenergy*. Vol 150, 2021, 106097; Singh M., et al. Keeping track of cleantech development using innovation clusters and member's website data: Evidence from leading energy clusters in Germany. *Energy Reports*. Vol 10, 2023, Pages 756-767; Kim, H., et al. Industry cluster, organizational diversity, and innovation. *International Journal of Innovation Studies*. Vol 7, Issue 3, 2023, Pages 187-195; Ahumada-Tello., et al. Human Factors, Innovation and Technology, and Cluster Strategies as Triggers of New Product Development. *Procedia CIRP*, Volume 119, 2023, Pages 176-181.

¹⁰ Кластерная экономика и промышленная политика: теория и инструментарий / под ред. д-ра экон. наук, проф. А.В. Бабкина. – СПб.: Изд-во Политехн. ун-та, 2015. – 588 с; Воронин Б. А. Кластеры в системе АПК: экономико-правовые аспекты: монография / Б. А. Воронин, Я. В. Воронина, С. Г. Головина [и др.]. – Екатеринбург: Издательство Уральского ГАУ, 2020. – 168 с.; Боговиз, А. В. Инновационное развитие АПК субъектов Российской Федерации: опыт и проблемы: монография / А. В. Боговиз, И. Г. Ушачева, И. С. Санду, В. Г. Савенко. – Москва: Столичная типография, 2018.-152 с.; Бортник, И. М. Становление инновационных кластеров в России: итоги первых лет поддержки / И. М. Бортник, С. П. Земцов, О. В. Иванова [и др.] // *Инновации*. – 2015. – № 7 (201). – С. 26–36.; Мордовченков Н. В., и друг. Агротестер как инновационный организационно-экономический механизм управления технологическими процессами в АПК. *Азимут научных исследований: экономика и управление*. 2015. № 1(10); Прогноз научно-технологического развития агропромышленного комплекса Российской Федерации на период до 2030 года / Л. М. Гохберд, А. Ю. Гребенюк, Е. Л. Дьяченко [и др.]. – Москва: НИУ ВШЭ, 2017. – 140 с.; Шестаков Р. Б., Ловчикова Е. И. Кластеризация регионов на основе базовых аграрно-экономических критериев. *Ekonomika Regiona [Economy of Regions]*, 19(1), 2023. – 178-191; Lokosov, V. V., et al. Clustering of regions by indicators of quality of life and quality of population. *Narodonaselenie [Population]*, 22(4), 2019. - 4-17.; Kolmakov, V. V., et al. Cluster Development Based on Competitive Specialization of Regions. *Ekonomika regiona [Economy of Region]*, 15(1), 2019.- 270-284. DOI: 10.17059/2019-1-21; Charykova, O. G., Markova, E. S. Regional Clustering in the Digital Economy. *Ekonomika regiona [Economy of region]*, 15(2), 2019. - 409-419. DOI: 10.17059/2019-2-8.; Кочербаева А.А., Укибаева Г.К. Потенциал кластеризации сельского хозяйства Карагандинской области. *Проблемы агрорынка*. 2018;(1):142-148; Мицкевич Б., Мицкевич П. Формирование кластерно-сетевой модели инновационного партнерства стран Европейского союза. XIII Международная научно-практическая конференция. – 2020. -171-174. https://refor.by/sites/default/files/40_.pdf; Izmailov R. K. Cluster approach to development of agricultural industry in the Kyrgyz Republic. *Рустем Измайлов / Rustem Izmailov* <https://orcid.org/0000-0001-7408-0718>; Серёдкин А.Н. Модель создания кластеров и ассоциаций производителей сельскохозяйственной продукции на региональном уровне. *Аудит и финансовый анализ*. №4, 2012.-395-400.

¹¹ Шадиёв Т.Ш. Экономические модели развития сельского хозяйства. – Т.:Фан, 1986. -С.168; Системный анализ и моделирование перспектив устойчивого развития национальной экономики Узбекистана:Чепель С.В. / Монография / Ташкент: IFMR, 2014. – 316 с; Navruz-Zoda B.N. Servis sohasi iqtisodiyotini klaster usulida barqaror rivojlantirish. Servis sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. N.S.Ibragimov ilmiy tahriri ostida. Chisinau (Moldova), Globe Edit. 2022. - 217 b.; Беркинов Б.Б. Корпоративные структуры: основы создания и управления. –Т.: Изд. Нац. биб-ки Узбекистана им. А.Наваи, 2005. – 132 с; Abdulloyev A. J. Agroklasterni faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro: - 2024. – 72 b.; Farmanov T.X. Ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi klasterlar faoliyatini rivojlantirish. Durdona nashriyoti, Buxoro. 2021.-272 b; Matyoqubova D.O. Mintaqada innovatsion faollik

boshqalarning ilmiy asarlarida keltirilgan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari qishloq xo‘jaligini klasterlashtirish va agroklaster tizimini rivojlantirish usullarini ishlab chiqish metodologiyasining umumiy masalalarini tadqiq etishning asosiy ilmiy manbalari hisoblanadi. Biroq, mazkur tadqiqot ishlarida qishloq xo‘jaligini klasterlashtirish jarayonlarini ekonometrik modellar asosida optimallashtirish masalalariga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan, agroklaster tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish omillarining chuqur klasterli tahlili o‘tkazilmagan, hududiy jihatdan innovatsion o‘tkazuvchanlik manbalari modellashtirilmagan, ishlab chiqarish intensivligi bilan bog‘liq jarayonlar, innovatsion ishlab chiqarishning iqtisodiy-matematik modellari negizida samaradorlikga erishish usullari tadqiq etilmagan. Ushbu holatlar tadqiqotimizning alohida xususyatini va dolzarblik jihatlarini farqlashi bilan birga, agroklaster tizimini optimal modellar yordamida tadqiq etishning muhimligini asoslaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o‘rtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlari” bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi agroklaster tizimining optimal modellarini ishlab chiqish metodologiyasiga oid ilmiy talkif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot ishining maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olindi:

agrosanoat tizimini klasterli rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari va xususiyatlarini tadqiq etish;

agroklaster tizimining murakkab qo‘shilgan qiymat zanjirini ilmiy jihatdan tavsiflash va sxematik tasniflash;

agroklaster tizimining optimal modellarini ishlab chiqishni ilmiy dalillash va uslubiy yondoshuvlarini asoslash;

hududiy innovatsion agroklaster tizimini global mezonlarda shakllantirish talablari va modellari asosida innovatsion rivojlantirishning milliy modeli va uning sxematik tasnifini ishlab chiqish;

mintaqaning innovatsion o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini aniqlash algoritmini ishlab chiqish asosida innovatsion agroklasterlarni shakllantirish imkoniyatlarni baholash usullarini takomillashtirish;

agroklaster tarmoqlarida ishlab chiqarish intensivligini optimallashtirishning matematik apparatini ishlab chiqish;

qishloq xo‘jaligini klasterli rivojlantirishning ko‘p komponentli (dinamika, mavsimiy, regressorli) va tizimlashgan modellarini ishlab chiqishni metodologik asoslash;

asosida agrar soha ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida)// (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Urganch: UrDU, 2022; Ismoilova G.T. Oziq-ovqat ta'minoti zanjirida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba. Iqtisodiyot va ta'lim ilmiy jurnali. № 5, 2022 y. 400-410 betlar; Zaxidov G. "O'zbekiston yengil sanoatida ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish va boshkarish samaradorligi". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori. diss.avtoref. T.2017. 35-b; Kasimov O.M. Raqobatbardoshlik va klaster. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2019. - 91 b.; Dustmurotov R.D., Z.G.Bozorboyeva. G'allachilik klasteri tizimida xarajatlar hisobining tashkiliy-uslubiy jihatlarini. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2021: - Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021.-272 b;

mintaqada agroklaster tizimini tendension tahlil qilish va hozirgi holatini baholash;

agroklaster tizimi ko'rsatkichlari asosida hududni iqtisodiy rivojlantirish parametrlarini baholash;

hududiy agroklaster tizimida resurs tejamkorligini oshirish usulini takomillashtirish;

innovatsion agroklaster tizimini shakllantirishda hududning innovatsion resektivlik salohiyatini baholash modellarini ishlab chiqish;

mintaqa qishloq xo'jalik tarmoqlarida ishlab chiqarish intensivligiga asoslangan agroklasterlarning iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish mexanizmini ishlab chiqish;

klasterlashtirilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyatidagi agroklasterlar faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini agroklaster tizimining optimal modellarini ishlab chiqish metodologiyasida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tizimli tahlil, taqqoslama tahlil, tanlanma kuzatish, omilli tahlil, matematik-statistik tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, matematik dasturlashtirish, cheklangan bog'liq o'zgaruvchini modellashtirish usuli, Gauss aralashma modeli (GMM) usuli, Bayes tuzilmaviy vaqt seriyasi (BSTS) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

agroklaster tizimini rivojlantirish asoslarini mustaxkamlash islohotlarining samaradorlik ko'rsatkichlari negizida mintaqa siyosiy muhiti innovatsiyalarni o'tkazuvchanlik darajasini baholashning $k = \left(\prod_{j=1}^4 k_{DSS(j)} \right)^{0,25}$ modeli taklif etilgan;

mintaqada algoritmik xususiyatlangan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, ijtimoiy, ekologik, geografik qatlamlarining innovatsiyalarni o'tkazuvchanlik koeffitsiyentlari $k_j = \frac{\exp(-\beta_0^j - \sum_i \beta_i^j \cdot x_i^j)}{1 + \exp(-\beta_0^j - \sum_i \beta_i^j \cdot x_i^j)}$ yordamida agroklaster

tizimini barqaror rivojlantirishning $IK = \left(\prod_{j=1}^8 k_j \right)^{0,125}$ modeli ishlab chiqilgan;

mintaqa agroklaster tizimida tarmoqlararo ishlab chiqarish salohiyati indeksining ($SI \leq 0,31$) past, ($0,31 < SI \leq 0,66$) o'rtacha, ($SI > 0,66$) yuqori samaradorlik mezonlari asosida resurs tejamkorligini oshirish usuli taklif etilgan;

mintaqa qishloq xo'jalik tarmoqlarida ishlab chiqarish intensivligi koeffitsiyentining (0,55; 0,52; 0,52) haqiqiy, (0,55; 0,54; 0,53) muvozanatlashgan va (0,56; 0,54; 0,53) optimal ko'rsatkichlari asosida agroklasterlarning iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish mexanizmi taklif etilgan;

Qashqadaryo viloyati agroklaster tizimini rivojlantirishning BSTS (Bayesian Structural Time Series), VAR, VECM modellari asosida 2025-2030 yillar uchun prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

agroklaster tizimining murakkab qo‘shilgan qiymat zanjirini tasniflovchi sxema ishlab chiqilgan;

agroklaster tizimini rivojlantirish usullariga asoslangan optimal modellarini ishlab chiqishni ilmiy dalillash va tarkibiy shakllantirishning ikki konturli sxemasi taklif etilgan;

agroklaster tizimining optimal modellarini ishlab chiqish metododligiyasining strukturaviy sxemasi ishlab chiqilgan;

innovatsion agroklaster tizimini shakllantirishda hududning innovatsion reseptivlik salohiyatiga ta‘sir etuvchi omillar guruhi belgilab berilgan;

innovatsion agroklaster tizimini shakllantirishda hududning innovatsion reseptivlik salohiyati manblarining algoritmik bog‘liqlik sxemasi ishlab chiqilgan;

agroklaster tizimini innovatsion rivojlantirishning ELM milliy modeli taklif etilgan va uning sxematik tasnifi ishlab chiqilgan;

innovatsion agroklasterlarni shakllantirishda mintaqaning innovatsion o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan;

mintaqada innovatsion agroklasterlarni shakllantirish imkoniyatlarni baholashda modifikatsiyalangan yondoshuvning metodologik zanjir sxemasi ishlab chiqilgan;

agroklaster tarmoqlarida ishlab chiqarish intensivligini optimallashtirishning algoritmi taklif etilgan;

qishloq xo‘jaligini klasterli rivojlantirishning ko‘p komponentli (dinamika, mavsimiy, regressorli) modellashtirishning matematik apparati ishlab chiqilgan;

klasterlashtirilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ko‘rsatkichlarining prognoz parametrlarini ishlab chiqishda $GMM \rightarrow BSTS \rightarrow VAR$ integratsiyasini amalga oshirish algoritmi taklif etilgan;

agroklaster tizimi ko‘rsatkichlari asosida hududning iqtisodiy rivojlantirish parametrlarini baholash modellari ishlab chiqilgan;

hududiy agroklaster tizimida resurs tejamkorligini oshirish usuli takomillashtirilgan;

innovatsion agroklaster tizimini shakllantirishda hududning innovatsion reseptivlik salohiyatini baholash modellari ishlab chiqilgan;

Qashqadaryo mintaqasi agroklaster tizimida innovatsiyalarning tarqalish ko‘lamini aniqlab beruvchi parametrik modifikatsiyalashgan modeli ishlab chiqilgan;

mintaqa agroklaster tarmoqlarining ishlab chiqarish intensivlik koeffitsiyentini hisoblash modellari ishlab chiqilgan;

mintaqa agroklaster tizimida innovatsion ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirishning modifikatsiyalangan Kobb-Duglas tipidagi modellari ishlab chiqilgan;

klasterlashtirilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ko‘rsatkichlarining prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, foydalanilgan ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi rasmiy nashrlaridan olingani, shuningdek, tegishli xulosa va takliflar mas‘ul tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif va xulosalar agroklaster tizimining optimal modellarini ishlab chiqishni metodologik takomillashtirishga, iqtisodiy jarayonlarning hududiy tadqiqini kengaytirishga, statistik ma'lumotlarning ishonchliligi, to'liqligi va yetarliligi, foydalanuvchilarning talablariga mos kelishini ta'minlashi hamda kelgusi o'zgarishlarni prognozlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mintaqada klasterlashtirilgan qishloq xo'jaligini, agroklaster tizimini rivojlantirish bo'yicha optimal modellarni ishlab chiqishda, modellashtirish usullarini takomillashtirishda, prognozashtirishning yangi uslubiy yondoshuvlarini asoslashda hamda oliy o'quv yurtlarida "Statistika va ekonometrika", "Makro-mikroiqtisodiy statistika", "Ekonometrika", "Biznes matematika", "Dinamik makroiqtisodiyot" fanlarini o'qitishda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Agroklaster tizimining optimal modellarini ishlab chiqish metodologiyasi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

agroklaster tizimini rivojlantirish asoslarini mustaxkamlash islohotlarining samaradorlik ko'rsatkichlari negizida mintaqa siyosiy muhiti innovatsiyalarni o'tkazuvchanlik darajasini baholashning $k = \left(\prod_{j=1}^4 k_{DSS(j)}\right)^{0,25}$ modeli taklifidan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda PF-223-son farmoniga muvofiq, Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yo'l xarita"sini ishlab chiqish va amalga oshirishda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 25-martdagi 07-07/2620-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qashqadaryo viloyatida innovatsion infratuzilmani rivojlantirishda operatsion xarajatlar taqsimotini optimallashtirishga erishildi. Agroklaster tarmoqlarida ichki integratsiya darajasini kuchaytirish va raqobatbardosh kooperatsiyalarni shakllanish bo'yicha davlat islohotlari ijro jarayonlarini monitoringlash tizimini takomillashtirishga hissa qo'shdi, mintaqaviy eksport strategiyasini ishlab chiqishda foydalanildi;

mintaqada algoritmik xususiyatlangan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, ijtimoiy, ekologik, geografik qatlamlarining innovatsiyalarni

o'tkazuvchanlik koeffitsiyentlari $k_j = \frac{\exp(-\beta_0^j - \sum_i \beta_i^j \cdot X_i^j)}{1 + \exp(-\beta_0^j - \sum_i \beta_i^j \cdot X_i^j)}$ yordamida agroklaster

tizimini barqaror rivojlantirishning $IK = \left(\prod_{j=1}^8 k_j\right)^{0,125}$ modeli bo'yicha taklifdan

"Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yo'l xarita"sini ishlab chiqish va amalga oshirishda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 25-martdagi 07-07/2620-

son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qashqadaryo viloyati agroklaster tarmoqlarida innovatsiyalarni joriy etishning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, ijtimoiy, ekologik, geografik xususiyatlaridan kelib chiqib kompleks yondoshish yordamida modernizatsiyalash izchilligi, diversifikatsiyalash darajasi va ishlab chiqarish sur'atini oshirishga erishildi;

mintaqa agroklaster tizimida tarmoqlararo ishlab chiqarish salohiyati indeksining

($SI \leq 0,31$) past, ($0,31 < SI \leq 0,66$) o'rtacha, ($SI > 0,66$) yuqori samaradorlik mezonlari asosida resurs tejamligini oshirish usuli bo'yicha taklifdan "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yo'l xarita"sini ishlab chiqish va amalga oshirishda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 25-martdagi 07-07/2620-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qashqadaryo viloyatida paxta-to'qimachilik klaster tarmog'ida investitsiya sarfini 1,1 foizga, yer resursini 9 foizga, suv sarfini 16,2 foizga, texnika ximati sarfini 2,2 foizga, energiya sarfini 2,7 foizga intensivlashtirish hisobiga ishlab chiqarish hajmini 2 foizga oshirishga erishildi. Meva-sabzavotchilik va g'allachilik tarmoqlarida resurs sarfining optimal o'lchovlariga keltirilishi va resurslardan foydalanish samaradorligini 1 foizga oshishi ishlab chiqarishning 1,4 foizga oshishiga xizmat qildi;

mintaqa qishloq xo'jalik tarmoqlarida ishlab chiqarish intensivligi koeffitsiyentining (0,55; 0,52; 0,52) haqiqiy, (0,55; 0,54; 0,53) muvozanatlashgan va (0,56; 0,54, 0,53) optimal ko'rsatkichlari asosida agroklasterning iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish mexanizmi bo'yicha taklifdan "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025 yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yo'l xarita"sini ishlab chiqish va amalga oshirishda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 25-martdagi 07-07/2620-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qashqadaryo viloyati agroklasterning tarmoqlarida yalpi xarajatlar tarkibida innovatsiya xarajatlarini oshishiga mos ravishda iqtisodiy samaradorlikning oshishiga erishildi. Ishlab chiqarish intensivligi koeffitsiyentining maqbul ko'rsatkichga yaqinlashtirish hamda xarajatlar o'sishini maqbullashtirish mexanizmining tadbiriq etilishi ishlab chiqarish tarkibida innovatsiyalar xissasini 50 foizga yaqinlashtirish imkonini berdi. Agroklasterning tarmoqlarida intensivlashtirish amaliyotining mazkur mexanizmga asoslanishi innovatsion ishlab chiqarishda, xususan, paxta-to'qimachilikda 25,6 foiz, meva-sabzavotchilikda 14,3 foiz, g'allachilikda 20,3 foiz iqtisodiy o'sishni ta'minladi;

Qashqadaryo viloyati agroklasterning tizimini rivojlantirishning BSTS (Bayesian Structural Time Series), VAR, VECM modellari asosida 2025-2030-yillar uchun prognoz parametrlari bo'yicha taklifdan "Qashqadaryo viloyatini 2024-2025-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha yo'l xarita"sini ishlab chiqish va amalga oshirishda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyati hokimligining 2025-yil 25-martdagi 07-07/2620-son ma'lumotnomasi). Taklif etilgan prognoz natijalari mintaqaga agrosanoatini, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning istiqbolli ko'rsatkichlarini baholashda va ustuvor yo'nalishlarini belgilashda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, 20 ta ilmiy jurnallarda, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy ilmiy jurnallarda 12 ta maqola, OAK ro'yxatidagi xorij jurnallarda 1 ta maqola, boshqa xorijiy jurnallarda 7 ta maqola va 6 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy anjumanlari materiallari to'plamlarida maqola va tezislarni nashr

etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat, umumiy hajmi 237 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi va ishning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Agroklaster tizimini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida klasterli yondoshuv nazariyalari va ularning mohiyati, farqli xususiyatlari, klasterlashtirishning zamonaviy nazariyalari tasnifi yoritildi. Agroklaster tizimining murakkab qo‘shilgan qiymat zanjirini tasniflovchi hamda optimal modellarini ishlab chiqishning ikki konturli metodologik sxemasi ishlab chiqildi, optimal modellarini ishlab chiqish metodologiyasining strukturaviy sxemasi tuzildi. Hududiy innovatsion agroklaster tizimini global mezonlarda shakllantirish talablari va modellari bayon qilindi.

Tarmoqlararo rivojlanish usullari integratsiya hamda senergiya yaratish tushunchalarining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Bu usullar shakllanib hozirda klaster usuli sifatida qo‘llanilmoqda. Klasterlashtirish usuli mohiyatan klasterlarni vujudga keltiradi. Klasterlar ma‘lum bir hududda o‘zaro yaqin, o‘xshash biri-biri bilan bog‘liq subyektlarning iqtisodiy aglomeratsiyasi sifatida A.Marshalning “Mahalliy sanoat” atamasini kiritish bilan aniqlashtiriladi, keyinchalik “Sanoat hududlari” nomi bilan keng tarqaladi. Tadqiqotimizda klasterli yondoshuv nazariyalari va ularning mohiyati, farqli xususiyatlari A.Marshallning “Sanoat hududlari” nazariyasi (1890), J. Jeykobsning “Shaharlar va iqtisodiy rivojlanish” nazariyasi (1969), F.Aydalotning “Texnologik klasterlar” nazariyasi (1986), M.Porterning “Klaster nazariyasi” (1990), P.Krugmanning “Geografik iqtisodiyot” nazariyasi (1991), A. Saxenianning “Yangi iqtisodiyot va klaster innovatsiyalari” nazariyasi (1994), M. Storperning “Mintaqaviy innovatsiya tizimlari” nazariyasi (1995), M. Enraytning “Regional klaster yondashuvi” (1996), M. Kristoferning “Ta‘minot zanjiri klasterlari” (1998), E.Hargadon va Robert I. Suttonning “Innovatsion klasterlar” (2000), R. Floridaning “Ijodiy sinf va klasterlar” (2002) nazariyalari bo‘yicha tadqiq etildi.

Yangi davrda, xususan 2010-yildan klaster yondashuvi nazariyasi turli olimlar tomonidan takomillashtirildi va yangi tushunchalar bilan boyitildi. Bularga SS (Smart Specialization), GVCh (Global Value Chains), OI (Open Innovation), SC (Sustainable Clusters), DC (Digital Clusters) nazariyalarini kirish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Klasterlashtirishning zamonaviy nazariyalari tasnifi¹²

Klaster nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida klaster tushunchasining turli ta'riflari keltiriladi. Xususan, A.V.Babkin, L.K. Shamina klasterlarni alohida iqtisodiy tizim sifatida qarashgan bo'lsa, M. Porter mamlakat raqobatbardoshligini alohida firmalarning emas, balki turli tarmoqlarga oid firmalar birlashmasi - klasterlarning xalqaro raqobatbardoshligi prizmasi orqali ko'rish zarurligini ta'kidlaydi. Ye. Lyumer, I. Tolendo va D. Solye, Ye.Daxmen, V.Feldman kabi nazariyachi olimlar ham klasterga ta'rif berib o'tishgan. Mamlakatimiz olimlaridan G.Zaxidov klasterni bir-biriga bog'liq, o'xshash belgilardan iborat bir butun yaxlitlikning tizimli harakat samarasini ifodalovchi subyekt deb ta'riflaydi. Shuningdek, D.Mirzaxalilova, A. Soliyev, X. Kodirov, M. Rahmatovlar ham o'ziga xos ta'riflarini keltirishgan.


Bizningcha, klaster - bu ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarni birlashtirgan, hududlarning tabiiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda yakuniy qo'shilgan qiymatni yaratuvchi subyektlarning xom ashyo yetishtiruvchi, qayta ishlovchi, xizmat ko'rsatuvchi sohalarni o'zida tarkiblashtirgan tizimdir.

Manbalarda "agrosanoat klasteri" va "agroklaster" tushunchalari bir-birining o'rnida ishlatiladi. Biroq, ba'zi manbalarda bu ikkisi farqlanadi. Asosan, agrosanoat klasterini "qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha texnologik jarayonlarni o'z ichiga olgan xo'jalik va korxonalar birlashmasidir" deyilsa, agroklaster "qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish maqsadida birlashgan qishloq xo'jaliklari, qayta ishlash sanoati korxonalari, saqlash, transport

¹² Muallif tomonidan tuzilgan

logistikasi va savdo infratuzilmasining yagona vertikal integratsiyalashgan tizimi” sifatida keltiriladi. Bizningcha, agroklastar va agrosanoat klasterlari hududda klasterlashgan tizimning barcha funksiyalari qamrovi bilan bir tushunchaning sinonimlari bo‘lib - bu xom ashyo ishlab chiqarish, tashish, saqlash, qayta ishlash, sotish jarayonlari vertikal integratsiyasi halqalarida qo‘shilgan qiymat yaratish zanjirini hosil qilgan murakkab kooperativ tizimdir.


Tadqiqotimiz jarayonida agroklastar tizimining yuqori qo‘shilgan qiymat zanjiri (QQZ)ni aks ettiruvchi sxema ishlab chiqildi (2-rasm).



2-rasm. Agroklastar tizimining qo‘shilgan qiymat zanjiri sxemasi¹³


Ushbu agroklastar tuzilmasi tizimining samarali ishlashi uchun barcha tarmoqlar qanday tizimlashganligini aniq ko‘rish imkonini beradi. Biroq O‘zbekiston respublikasi va hududlarida agroklastar tizimi qo‘shilgan qiymat zanjirida to‘liq faoliyat olib bormayapti. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida paxta-to‘qimachilik, g‘allachilik va meva-sabzavotchilik klaster tarmoq‘lari mavjud bo‘lib, QQZning yuqori bosqichlarida faol iqtisodiy jarayonlar kam kuzatiladi. Bu esa, klasterlashtirish yondoshuvlarini takomillashtirish, agroklastar tizimining optimal modellarini ishlab chiqish zaruratini kuchaytiradi. Agroklastar tizimining optimal modellarini ishlab chiqish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsiyalarni joriy etish va resurslardan foydalanishning eng maqbul usullarini aniqlash uchun zarurdir. Fikrimizcha, optimal modellarni ishlab chiqish jarayonida strategik, innovatsion va klasterli rivojlantirish usullarini birlashtirgan xususiyatlarini inobatga olish zarur (3-rasm).

¹³ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan



3-rasm. Agroklaster tizimining optimal modellarini ishlab chiqishning ikki konturli metodologik sxemasi¹⁴

Nazariy tadqiqalarimizdan kelib chiqib, agroklaster tizimini rivojlantirishning asosiy masalalarini tizimlashtirgan holda ularni yechish usullarini jamlagan yangi metodologik yondoshuvni taklif etdik va uning tuzilmasini ishlab chiqildi (4-rasm).




4-rasm. Agroklaster tizimining optimal modellarini ishlab chiqish

¹⁴ Ushbu sxemalar muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan

metodologiyasining strukturaviy sxemasi

Rivojlangan mamlakatlarda agroklastar tizimi turli modellar asosida shakllangan bo'lib, agroklastar tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishda yangi texnologiyalarni hududdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa javhalarni qamrab olgan mavjud muhitning qabul qilish darajasi hal qiluvchi rolga egaligi birlashtiruvchi omil ekanligi aniqlandi. Shu boisdan, innovatsion agroklastar tizimini shakllantirishda hududning innovatsion reseptivlik salohiyati manblari sifatida hudud muhitining siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, ijtimoiy, ekologik, geografik qatlamlarini tanlab oldik.

Innovatsion agroklastar tizimini shakllantirishda hududning innovatsion reseptivlik salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar guruhini shakllantirdik (5-rasm).



5-rasm. Innovatsion agroklastar tizimini shakllantirishda hududning innovatsion reseptivlik salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar¹⁵


Bu tartib agroklastarlarning innovatsiyalarni muvaffaqiyatli qabul qilishini va amaliyotga joriy qilishini optimallashtiradi. Shuningdek, innovatsion o'tkazuvchanlikning ELM (Eight Layer Model) modelini asoslash vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning **“Agroklastar tizimini modellashtirishning metodologik asoslari va optimallashtirish konsepsiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida agroklastar tizimini innovatsion rivojlantirishning, ishlab chiqarish intensivligini optimallashtirishning konseptual, qishloq xo'jaligini klasterli rivojlantirishning ko'p komponentli, tizimlashgan modellarini ishlab chiqarishning metodologik asoslari, va modifikatsion yondoshuvlari bayon qilindi. Innovatsion o'tkazuvchanlik koeffitsiyentini aniqlash va ishlab chiqarish intensivligini optimallashtirish

¹⁵ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan

algoritmлари, ishlab chiqarish intensivligi koeffitsiyentining modellari ishlab chiqildi.

Innovatsion agroklasterni shakllantirishda hududning innovatsion reseptivlik salohiyatini shakllantiruvchi omillar darajasi sifatida hudud muhitining k_1 - siyosiy, k_2 – huquqiy, k_3 – iqtisodiy, k_4 – moliyaviy, k_5 – texnologik, k_6 – ijtimoiy, k_7 – ekologik, k_8 - geografik qatlamlarining innovatsiyalarni o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentlarini belgilaymiz. Tadqiqotimiz jarayonida innovatsion agroklasterni shakllantirishda mintaqaning innovatsion o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini aniqlash algoritmi quyidagicha ishlab chiqildi (6-rasm).



6-rasm. Innovatsion agroklasterni shakllantirishda mintaqaning innovatsion o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini aniqlash algoritmi¹⁶

Ushbu algoritm hududda agroklasterni tizimining innovatsion salohiyatini oshirish mezonlarini belgilovchi innovatsion o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentlari asosida agroklasterni barqaror rivojlantirish ko‘rsatkichlarini hisoblash imkonini beradi. Bu yerda k_j , ($j = 1, 2, \dots, 8$) ko‘rsatkichlar uchun quyidagi strukturali modellar ishlab chiqilgan

$$k_1 = \left(\prod_j^4 k_{DSS(j)} \right)^{0,25}, \quad k_{j=2, \dots, 8} = \frac{\exp\left(-\beta_0^{(j)} - \left(\sum_{i=1}^m \beta_i^{(j)} \cdot X_i^{(j)}\right)\right)}{1 + \exp\left(-\beta_0^{(j)} - \left(\sum_{i=1}^m \beta_i^{(j)} \cdot X_i^{(j)}\right)\right)} \quad (1)$$

Bu yerda $k_{DSS(j)}$ – davlat siyosatining agrosanoat tizimida innovatsion infratuzilma yaratish, tarmoqlararo integratsiya va kooperatsiyani shakllanish, eksport strategiyasi va moliyalashtirish mexanizmi, kadrlar tayyorlash va rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatining samaradorlik ko‘rsatkichlari, $X^{(j)}$ –hududiy muhitning j-qatlamini tavsiflovchi omillar top‘lami.

Qishloq xo‘jaligi tizimida ishlab chiqarishni intensivlashtirishning hududiy yondoshuvi geografik, iqtisodiy, ijtimoiy holatning barqarorligiga asoslansa, milliy

¹⁶ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan

yondoshuvlar hududning o‘ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy “mentalitet” dastaklariga asoslanadi. Strategik yondoshuvlar globallashuv jarayonini hisobga olgani holda eng maqbul talablarning qo‘yilishi bilan bog‘liq omillarni hisobga oladi. Bizning fikrimizcha, agro tarmoqlarda intensiv ishlab chiqarish – bu samarador innovatsion faoliyat natijasidir. Shu bois tadqiqotimizda innovatsion ishlab chiqarish va intensivlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘lanish munosabatlari ko‘rib chiqildi.

Innovatsion ishlab chiqarishning agro tarmoqdagi ahamiyatini baholash uchun quyidagi nisbat qo‘llaniladi

$$N = \frac{Q_i^{(I)} - C_i^{(I)}}{Q_i^{(T)} - C_i^{(T)}} \quad (2)$$

Bu yerda: $Q_i^{(T)}$ - i -agro tarmoqning umumiy ishlab chiqarishi, $Q_i^{(I)}$ - umumiy ishlab chiqarish tarkibidagi innovatsion ishlab chiqarish hajmi, $C_i^{(T)}$ - i -agro tarmoqning umumiy ishlab chiqarish xarajatlari, $C_i^{(I)}$ - i -agro tarmoqning $C_i^{(T)}$ tarkibidagi innovatsion ishlab chiqarish xarajatlari.

Tadqiqotimizda (2) modelning i -tarmoqning ishlab chiqarish intensivligi koeffitsiyenti μ_i ($0 \leq \mu_i \leq 1$) ga bog‘liq modifikatsiyalangan modeli taklif etildi

$$N(\mu_i) = \frac{\alpha_i^{(I)} Q_i^{(I)} - (1 - \mu_i) C_i^{(I)}}{\alpha_i^{(T)} Q_i^{(T)} - \mu_i C_i^{(T)}} \quad (3)$$

Bu yerda $\alpha_i^{(T)}$ va $\alpha_i^{(I)}$ ishlab chiqarish umumiy va innovatsiya xarajatlarining yalpi ishlab chiqarish va uning tarkibidagi innovatsion ishlab chiqarish hajmiga nisbatan elastiklik koeffitsiyentlari. Shuningdek, ishlab chiqarish turlari bo‘yicha mehnat resursining elastiklik ko‘rsatkichlarini mos ravishda $1 - \alpha_i^{(T)}$ va $1 - \alpha_i^{(I)}$ ga teng deb qaraymiz.

(3) modelga asosan, intensiv ishlab chiqarishning innovatsiyalarga asoslanganlik darajasini baholash funksiyasi quyidagicha aniqlandi

$$Z_i = \frac{(\alpha_i^{(T)} Q_i^{(T)} - \mu_i C_i^{(T)}) \cdot (\alpha_i^{(I)} Q_i^{(I)} - (1 - \mu_i) C_i^{(I)})}{Q_i^{(T)} + Q_i^{(I)}} \quad (4)$$

Bu yerda baholash funksiyasi Z_i ning qiymati qancha katta chiqsa, innovatsiyalarga asoslanganlik darajasi yuqori ekanligini ifoda etadi. Bu yerda mahrajdagi $Q_i^{(T)} + Q_i^{(I)}$ yig‘indi Z_i ning qiymatini normallashtirish maqsadida qo‘llanilgan bo‘lib, funksiyaning boshqa xususiyatlariga mutloq ta’sirga ega emas.

Ishlab chiqarish intensivligi koeffitsiyentining muvozanat holatini (3) tenglamada nisbatni 1 ga tenglash, optimal holatini (4) modelni μ_i nisbatan differensiallab, nolga tenglash, haqiqiy qiymatini esa klassik shaklda quyidagicha tasvirlaymiz, ya’ni mos ravishda quyidagi tengliklar o‘rinli

$$\mu_i^B = \frac{\alpha_i^{(T)} Q_i^{(T)} + C_i^{(I)} - \alpha_i^{(I)} Q_i^{(I)}}{C_i^{(T)} + C_i^{(I)}}, \quad \mu_i^{(O)} = \frac{1}{2} + \frac{1}{2} \left(\frac{\alpha_i^{(I)} Q_i^{(I)}}{C_i^{(I)}} - \frac{\alpha_i^{(T)} Q_i^{(T)}}{C_i^{(T)}} \right), \quad \mu_i = \sqrt{\frac{Q_i^{(I)}}{Q_i^{(T)}} \cdot \frac{C_i^{(I)}}{C_i^{(T)}}} \quad (5)$$

Bu yerda $\alpha_i^{(T)}$, $\alpha_i^{(I)}$ parametrlar Kobb-Duglasning quyidagi modifikatsiyalangan funksiyasidan aniqlanadi (i - agro tarmoqlar indeksi)

$$\ln Q_i^{(T)} = \alpha_i^{(T)} \ln \left(\frac{A_{(i)K}}{A_{(i)L}} \right) + f_{(i)1}(t), \quad f_{(i)1} = \beta_{10} + \sum_{j=1}^p \beta_{1j} t^j \quad (6)$$

$$\ln Q_i^{(T)} = \alpha_i^{(I)} \ln \left(\frac{B_{(i)K}}{B_{(i)L}} \right) + f_{(i)2}(t), \quad f_{(i)2} = \beta_{20} + \sum_{j=1}^p \beta_{2j} t^j \quad (7)$$

$$a_i^{(T)} = \inf \left(\alpha_i^{(T)}, 1 - \alpha_i^{(T)} \right), \quad a_i^{(I)} = \inf \left(\alpha_i^{(I)}, 1 - \alpha_i^{(I)} \right) \quad (8)$$

Bu yerda: $A_{(i)L}, B_{(i)L}$ – mos ravishda i-agro tarmoqda umumiy va innovatsion ishlab chiqarish jarayonidagi bandler soni, $A_{(i)K}, B_{(i)K}$ – mos ravishda i-agro tarmoqda umumiy va innovatsion ishlab chiqarish xarajatlari, $f_{(i)j}(t)$ – texnologik rivojlanish komponentining daraja ko‘rsatkichi, t-trend, $j = 1, 2$;

Ushbu modellarga asoslangan holda 2 ta optimallashtirish masalasining matematik apparati ishlab chiqildi. Xususan, innovatsion ishlab chiqarish hajmiga nisbatan optimallashtirish masalasining umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

Maksimumlashtirishning maqsad funksiyasi

$$Z_i \left(Q_i^{(I)}(t) \right) = \frac{F^{(T)}(t) \cdot F^{(I)}(t)}{Q_i^{(T)}(t) + Q_i^{(I)}(t)} \rightarrow \max \quad (9)$$

Cheklanishlar tizimi esa quyidagicha tarkibga ega:

$$\begin{cases} F^{(T)}(t) = F^{(I)}(t) \\ Q_i^{(I)}(t) = \frac{1}{a_i^{(I)}} \cdot \left(a_i^{(T)} Q_i^{(T)}(t) + C_i^{(I)}(t) - \mu_i^B(t) \cdot \left(C_i^{(T)}(t) + C_i^{(I)}(t) \right) \right) \\ Q_i^{(I)}(t) \leq Q_i^{(T)}(t) \end{cases} \quad (10)$$

Umumiy ishlab chiqarish hajmi va xarajatidan boshqa barcha o‘zgaruvchilarga nisbatan optimallashtirish masalasining umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

Maksimumlashtirishning maqsad funksiyasi

$$Z_i(Q_i^{(I)}(t), C_i^{(I)}(t), \mu_i^R(t), \mu_i^B(t), \mu_i^O(t), a_i^{(T)}, a_i^{(I)}) = \frac{F^{(T)}(t) \cdot F^{(I)}(t)}{Q_i^{(T)}(t) + Q_i^{(I)}(t)} \rightarrow \max \quad (11)$$

Cheklanishlar tizimi

$$\begin{cases} Q_i^{(I)}(t) = \frac{1}{a_i^{(I)}} \cdot \left(a_i^{(T)} Q_i^{(T)}(t) + C_i^{(I)}(t) - \mu_i^B(t) \cdot \left(C_i^{(T)}(t) + C_i^{(I)}(t) \right) \right) \\ Q_i^{(I)}(t) \leq Q_i^{(T)}(t); C_i^{(I)}(t) \leq C_i^{(T)}(t), a_i^{(T)} \leq 0,5; a_i^{(I)} \leq 0,5 \\ F^{(T)}(t) = F^{(I)}(t); \mu_i^R(t) = \mu_i^B(t) = \mu_i^O(t) \end{cases} \quad (12)$$

Bu yerda:


$$F^{(T)} = a_i^{(T)} Q_i^{(T)} - \mu_i C_i^{(T)}, \quad F^{(I)} = a_i^{(I)} Q_i^{(I)} - (1 - \mu_i) C_i^{(I)} \quad (13)$$

Ushbu optimal modellar asosida klasterlashtirilgan qishloq xo‘jaligining rivojlantirish ko‘rsatkichlarini istiqbolli baholashda GMM (Generalized Method of Moments), BSTS (Bayesian Structural Time Series), VAR (Vector Autoregressive Models), VECM (Vector Error Correction Models) modellashtirish usullarining xususiyatlari ko‘rib chiqildi. Natijada, $GMM \rightarrow BSTS \rightarrow VAR$ integratsiyasi, hamda VECM ning muvaffiqiyatli tadbiq etish holatlari tadqiq etildi.

Dissertatsiyaning **“Hududiy agroklastlar tarmoqlarining tizimli tahlili va iqtisodiy parametrlarini baholash”** deb nomlangan uchinchi bobida mintaqa agroklastlar tizimining tendension tahlili o‘tkazildi va hozirgi holati, tizim ko‘rsatkichlari asosida hududning iqtisodiy rivojlantirish parametrlari baholandi. Hududiy agroklastlar tizimida resurs tejamkorligini oshirish usulini takomillashtirish jarayonlari va asoslari keltirildi.

Mintaqa agroklaster tizimining tendension tahlili klasterlashtirish ko'rsatkichlarining, paxta va g'alla hosildorligining, agroklaster tarmoqlarida birlik (1 mln so'mlik) mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan investitsiya, mehnat, yer maydoni, sarflangan suv miqdori, suv tejavchi texnologiyalar joriy qilingan va lazerli tekislangan yer maydoni, texnika xizmat ko'rsatish hajmi, elektr energetika sarfi, agro mahsulotlari eksporti va import hajmi, eksport salohiyatining o'zgarish dinamikasi bo'yicha o'tkazildi.

Qishloq xo'jaligining klasterlashtirilishi fonida paxta va g'alla hosildorligida ham o'zgarishlarni kuzatish mumkin (7a-rasm).



7-rasm. Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlarining o'zgarish

dinamikasi¹⁷

Mintaqada paxta hosildorligi juda past. Respublikada 2010-2024-yillikda oʻrtacha hosildorlik 34,5 s/ga ekanligini hisobga olsak viloyatda oʻrtacha koʻrsatkich 27,3 s/ga ni tashkil etadi. Mintaqada paxta va gʻalla yetishtirish rasman 2021-yildan 100 foiz klaster usulida amalga oshiraloyotganligini inobatga olganda paxta hosildorligi oʻrta darajaga yetkanligi ahamiyatli jihatdir. Paxta hosildorligi soʻngi 4 yilda barqaror oʻsmoqda. 28 s/ga koʻrsatkichdan 34,8 s/ga koʻrsatkichga yetgan. Farq 6,8 s/ga ni tashkil etadi. Bu sezilarli natija. Gʻalla hosildorligi 3 yilda barqaror oʻsmoqda. 55,5 s/ga koʻrsatkichdan 65,7 s/ga koʻrsatkichgacha oshgan. Demak, klasterlashtirish amaliyotida dehqonchilikning asosiy ekinlari hosildorligini oshirishga erishilmoqda. Albatta mazkur samaradorlik zamirida ishlab chiqarish jarayoniga intensiv yondoshuv yotadi. Shuningdek, resurs sarfini tejash, eksport salohiyatining ortishi qishloq xoʻjaligini klasterlashtirish jadallashgan, yaʼni 201-2019-yillardan boshlab sezilarli boʻlgan (9-rasmda keltirilgan).

Mintaqada agroklastlar tarmoqlarida resurs samaradorlik koʻrsatkichlarining oʻzgarish dinamikasiga eʼtibor qaratamiz (birlik mahsulot sifatida 2023-yilgi natixlar indeksi boʻyicha 1 mln. soʻmlik mahsulot oʻlchovini qabul qilindi). Agroklastlar tarmoqlari orasida investitsiya samaradorlik koʻrsatkichining past qiymatlari gʻallachilik tarmogʻiga mos kelmoqda. 2019-yildan keyingi davrlarda investitsiya samaradorligining oshishi kuzatiladi. Mazkur davrdan boshlab, 0,67 nisbatning 0,59 gacha pasayishini koʻrish mumkin, yaʼni ishlab chiqarish va investitsiya resursi hajmining ortishi dinamikasida mos nisbat kamayishiga erishilmoqda. Samaradorligi eng yuqori koʻrsatkichi meva-sabzavotchilik tarmogʻida, yaʼni 2016 yilgi holatdan 2024-yilga kelib, koʻrsatkich 0,41 ga teng boʻlganligini koʻrish mumkin. Oʻrta darajadagi samaradorlik paxta-toʻqimachilik tarmogʻida, 2016-yilgi holatdan 2024-yilga kelib, nisbat koʻrsatkich 0,51 gacha pasaygan.

Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasida paxta va gʻalla mahsulotlari toʻliq klaster usuli bilan yetishtirilmoqda. Meva-sabzavotchilikda klasterlar xissasi Respublikada 63,7 foizni, Qashqadaryo viloyatida 58,5 foizni tashkil etmoqda. Malakatimizda klasterlashtirishning soʻngi besh yillik davri mobaynida paxta-toʻqimachilik tarmogʻida 7,0 mlrd. AQSh dollar, gʻallachilikda 586,3 mln. AQSh dollar, meva-sabzavotchilikda 912,3 mln. AQSh dollar atrofida investitsiya asosiy kapitalga oʻzlashtirildi. Natijada, 250 mingga yaqin aholi bandligi taʼminlandi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi 72 foizga olib chiqildi. Xususan, paxta-toʻqimachilik klasterlarida tolani qayta ishlash 2,57 barobarga, ip-kalava ishlab chiqarish 2,13 barobarga, keyim-kechak va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish 3,18 barobarga, umumiy eksport hajmi 4 mlrd. AQSH dollariga yaqinlashdi. Qashqadaryo viloyati chorvachilik hamda dehqonchilikning paxta va gʻallachilik tarmoqlarida mahsulot yetishtirish borasida yetakchilik qilib kelmoqda.

Tadqiqotimizda mazkur salohiyatni resurs tejamkorligini oshirish amaliyotiga koʻchirish imkoniyatlarini baholash uchun mintaqa agroklastlar tizimida tarmoqlararo ishlab chiqarish salohiyati indeksining samaradorlik mezonlari asosida resurs

¹⁷ Muallif tomonidan tuzilgan. Manba: Qashqadaryo viloyati qishloq xoʻjaligi hamda viloyati statistika boshqarmalarining rasmiy maʼlumotlari

tejamkorligini oshirish usuli taklif etildi.

Real iqtisodiy sharoitlarda resurslarning optimal darajada taqsimlanishiga amaliy jihatdan erishib bo'lmaydi, biroq kutilgan natijaga yaqinlashish mumkin. Iqlim sharoitlari, bozor talabining o'zgarishi yoki texnologik cheklovlar tufayli resurslardan foydalanish darajasi optimal qiymatlardan chetlanishi ehtimoli mavjud. Bunday sharoitlarda ishlab chiqarish funksiyalaridan foydalanish resurs taqsimotini moslashuvchan rejalashtirish va ishlab chiqarish hajmini maksimal darajada saqlab qolish imkonini beradi. Bugungi kunda modifikatsiyalangan ishlab chiqarish funksiyalari asosida resurslarning samaradorligi tahlil qilinib, ularning optimal darajasidan chetlanish holatlarida ham yuqori samaraga erishish strategiyalari ishlab chiqilmoqda. Ushbu belgilashlarni kiritamiz (k -agroklaster tarmog'ini ifoda etadi): $Y(k)$ - agroklasterlarining ishlab chiqarish hajmi, mln. so'm; R_1 - birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan investitsiya, investitsiya hajmining ishlab chiqarish hajmiga nisbati, R_2 - birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat, ishchi kuchi xarajatlarining ishlab chiqarish hajmiga nisbati; R_3 - birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan yer maydoni, mln.so'm/ga; R_4 - birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan suv, metr.kub; R_5 - birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun texnika xizmat ko'rsatish hajmi, nisbat; R_6 - birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan elektr energetika hajmi, Kv.soat.

Resurs sarfining ortishi va ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bo'yicha ekstensiv mantiqqa ko'ra ishlab chiqarish hajmining ortishi kuzatilsin deb qabul qilingan faraz differensial tenglamani ifoda etadi

$$\frac{\partial Y}{\partial R} = Y(R) \cdot \left(\frac{B}{R} + A \right) \quad (14)$$

Bu yerda A - sarflangan R resursning miqdoriga bog'liq holatda Y ning o'zgarishini ifodalovchi koeffitsiyent, B - sarflangan R ning birlik foiz o'zgarishiga Y ning foiz o'zgarishini ifoda etuvchi o'sish tezlanishi.

Barcha (k) uchun (14)ning umumiy yechimi quyidagicha, ya'ni

$$Y_k(R) = A^{(k)} * \exp \left(\sum_{j=1}^6 A_j^{(k)} R_{j,k} \right) * \prod_{j=1}^6 R_{j,k}^{B_j^{(k)}} \quad (15)$$

Bu yerda $k = 1$ bo'lsa, paxta-to'qimachilik, $k = 2$ bo'lsa, meva-sabzavotchilik, $k=3$ bo'lsa g'allachilik klaster tarmoqlarini ifoda etadi. Ushbu (15) model iqtisodiy mohiyatga ko'ra, Y_k ning resurs intensivligi asosida ortishini ta'minlanishi, shuningdek bizning holda agroklasterlar ishlab chiqarish faoliyatiga mos kelishi kerak. U holda maqsad funksiyani ikki holatini yozamiz yozamiz, ya'ni

$$Y_k(R) - Y_k \rightarrow \min, Y_k(R) \rightarrow \max \quad (16)$$

(15) model ikki xususiyati bilan ko'rib chiqilmoqda, shu sababli (16) da 1-maqsad funksiyasini quyidagi ko'rinishga almashtiramiz, ya'ni

$$\varepsilon_k = \frac{1}{N} \left| \frac{Y_k(R) - Y_k}{Y_k} \right| \cdot 100\% \rightarrow \min \quad (17)$$

Bu yerda $N - (k)$ agroklaster tarmog'idagi klasterlar soni, ε_k - modelning o'rtacha absolyut-nisbiy xatoligi. Klassik optimallashtirish jarayonlarini

soddalashtirish maqsadida maqsad funksiyani chiziqshastiramiz. U holda quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz

$$\ln Y_k = B^{(k)} + \sum_{j=1}^6 A_j^{(k)} \cdot R_j^{(k)} + \sum_{j=1}^6 B_j^{(k)} \cdot \ln R_j^{(k)} \quad (18)$$

Bu yerda $B^{(k)}$ – (k) -klaster tarmog‘i uchun modelning neytral parametri, $A_j^{(k)}$, $B_j^{(k)}$ - (k) -klaster tarmog‘i uchun modelning koefitsiyentlari. Chiziqshastirilgan shaklning (16) da 2-maqsad funksiyasi uchun ekstremumlik shartlarini yozamiz.

$$\frac{\partial \ln Y_k}{\partial R_j^k} = A_j^k + B_j^k \cdot \frac{\partial \ln R_j^k}{\partial R_j^k} = 0 \text{ yoki } A_j^k + B_j^k \cdot \frac{1}{R_j^k} = 0 \Rightarrow R_j^k = -\frac{B_j^k}{A_j^k} \quad (19)$$

Ushbu tengliklar model tarkibidagi har bir $R_j^{(k)}$ o‘zgaruvchining optimal ko‘rsatkichi bevosita koefitsiyentlari nisbati bilan aniqlanishini ko‘rsatadi. (18) modelni parametrlashtirish uchun (17) maqsad funksiyani minimumlashtirish talabini inobatga olib, matematik dasturlash apparatidan foydalanildi. Bunda, cheklanishlar tizimi, (19) munosabat, hamda $R_j^{(k)}$ ko‘rsatkichlarning o‘zgarish oraliqlaridan kelib chiqib, quyidagicha yozamiz

$$\begin{cases} A_j^k * B_j^k < 0 \\ -\frac{B_j^k}{A_j^k} < \max \{R_j^{(k)}\} \end{cases} \quad (20)$$

Ushbu matematik dasturlash masalasini gradient tushish usulida yechib, quyidagi parametrlar kelib chiqadi (1-jadval).

1-jadval.

Qashqadaryo viloyati agroklaster tarmoqlarining resurs sarfi va optimal ko‘rsatkichlari¹⁸

k	Neytral parametr	Model koefitsiyentlari					
1	Paxta-to‘qimachilik klaster tarmog‘i (PTKT)						
	B1	A11	A12	A13	A14	A15	A16
	417,7033	95,6247	-393,454	-332,6824	0,8542	-1299,556	-0,6722
		B11	B12	B13	B14	B15	B16
		-47,1857	60,0273	6,3043	-8,3276	208,8798	74,9763
	Optimal ko‘rsatkich	0,49345	0,1526	0,0189	9,749	0,1607	111,5441
	O‘rtacha ko‘rsatkich	0,5259	0,1584	0,0192	11,2000	0,1649	114,3316
Farq	-0,0325	-0,0058	-0,0003	-1,451	-0,0042	-2,7875	
Modelning absolyut-nisbiy xatoligi, foiz							1,971
2	Meva-sabzavotchilik klaster tarmog‘i (MSKT)						
	B2	A21	A22	A23	A24	A25	A26
	9671,1856	2581,46	-14949,8	5358,26	-87,4126	-24736,2	-48,4468
		B21	B22	B23	B24	B25	B26
		-985,879	3110,57	-230,620	347,1260	3682,395	2135,529
	Optimal ko‘rsatkich	0,38191	0,20807	0,04304	3,97112	0,14887	44,0799
	O‘rtacha ko‘rsatkich	0,4096	0,2116	0,0471	4,1557	0,1507	47,1386
Farq	-0,02769	-0,00353	-0,00406	-0,18458	-0,00183	-3,0587	
Modelning absolyut-nisbiy xatoligi, foiz							2,095
3	G‘allachilik klaster tarmog‘i (MSKT)						

¹⁸ Muallif tomonidan mustaqil tuzilgan

	B3	A31	A32	A33	A34	A35	A36
	1185,878	-261,298	171,167	-6447,10	-2,436	-66,633	-0,792
		B31	B32	B33	B34	B35	B36
		156,414	-27,970	266,844	16,152	10,941	32,248
	Optimal ko'rsatkich	0,59861	0,16341	0,0414	6,63096	0,16420	40,72542
	O'rtacha ko'rsatkich	0,6040	0,1651	0,0418	7,2440	0,2104	41,8984
	Farq	-0,0054	-0,0017	-0,0004	-0,613	-0,0462	-1,173
Modelning absolyut-nisbiy xatoligi, foiz							0,881

Har bir tarmoq bo'yicha klasterli tahlil usulidan foydalanib, 19 ta paxta-to'qimachilik, 14 ta meva-sabzavotchilik, 25 ta g'allachilik klasterlari bo'yicha guruhlar ($R_i, i = 1, \dots, 6$) ko'rsatkichlariga nisbatan shakllantirildi. Guruhlar kesimida resurs intensivligi asosida iqtisodiy o'sish salohiyati quyidagi modelga asosan ko'rib chiqildi.

$$\ln Y_k = B^{(k)} + M_{k1} + M_{k2} \quad (21)$$

Bu yerda: $k = 1$ uchun $B^{(1)} = 417,7033$; $k = 2$ uchun $B^{(2)} = 9671,1856$; $k = 3$ uchun $B^{(3)} = 1185,878$. Shuningdek, $k = 1$ uchun: $M_{11} = 95,6R_1^{(1)} +$

$$-393,5R_2^{(1)} - 332,7R_3^{(1)} + 0,85R_4^{(1)} - 1299,6R_5^{(1)} - 0,672R_6^{(1)} \quad (22)$$

$$M_{12} = 95,6\ln R_1^{(1)} - 393,5\ln R_2^{(1)} - 332,7\ln R_3^{(1)} +$$

$$+0,85\ln R_4^{(1)} - 1299,6\ln R_5^{(1)} - 0,672\ln R_6^{(1)} \quad (23)$$

$$k = 2 \text{ uchun: } M_{21} = 2581,46R_1^{(2)} - 14949,8R_2^{(2)} - 5358,26R_3^{(2)} +$$

$$-87,412R_4^{(2)} - 24736,2R_5^{(2)} - 48,447R_6^{(2)} \quad (24)$$

$$M_{22} = -985,88\ln R_1^{(2)} + 3110,6\ln R_2^{(2)} - 230,62\ln R_3^{(2)} +$$

$$+347,12\ln R_4^{(2)} + 3682,4\ln R_5^{(2)} + 2135,5\ln R_6^{(2)} \quad (25)$$

$$k = 3 \text{ uchun: } M_{31} = -261,3R_1^{(3)} + 171,167R_2^{(3)} - 6447,1R_3^{(3)} +$$

$$-2,436R_4^{(3)} - 66,633R_5^{(3)} - 0,792R_6^{(3)} \quad (26)$$

$$M_{32} = 156,414\ln R_1^{(3)} - 27,97\ln R_2^{(3)} + 266,844\ln R_3^{(3)} +$$

$$+16,152\ln R_4^{(3)} + 10,94\ln R_5^{(3)} + 32,248\ln R_6^{(3)} \quad (27)$$

Resurs sarfi optimal ko'rsatkichlarining kichik atrofida klasterlar ishlab chiqarish sur'atini oshirish salohiyatini baholash uchun, nisbatan kichik talab mezonlarini qo'yamiz. Xususan, $a_{ki} = 0,02$ yoki 2 foiz, $\Delta_{kj} = 0,01 \cdot \check{X}_{kj}$ bo'lsin.

2-jadval.

Qashqadaryo viloyati klaster guruhlarining resurs intensivligi asosida ishlab chiqarish salohiyatini baholash ko'rsatkichlari¹⁹

Klaster guruhlari	Maxsus ko'rsatkich	PTK	MSK	G'K
		Y(1), mln. so'm	Y(2), mln. so'm	Y(3), mln. so'm
1	O'рта qiymat	159917,55	5393,367	1524,18
	Natijaviy qiymat	161733,35	5445,79	1620,44
2	O'рта qiymat	137703,77	16884,375	3205,06
	Natijaviy qiymat	138907,11	17028,13	3324,33
3	O'рта qiymat	89933,33	20675,157	5074,11
	Natijaviy qiymat	90917,06	21117,45	5023,93

¹⁹ Muallif tomonidan hisoblab chiqilgan

4	O'rtta qiymat	42430,00	30844,602	7016,82
	Natijaviy qiymat	42835,11	31120,66	7152,22
5	O'rtta qiymat	195691,10	48028,456	25000,21
	Natijaviy qiymat	193980,28	48857,14	25643,05
6	O'rtta qiymat	238158,00	76698,57	9809,44
	Natijaviy qiymat	233457,92	80923,67	9251,99
7	O'rtta qiymat	308012,13	-	12816,83
	Natijaviy qiymat	299181,25	-	13087,72
8	O'rtta qiymat	428371,20	-	15491,11
	Natijaviy qiymat	413564,10	-	15725,49

Bu yerda resurs intensivligi asosida ishlab chiqarishning o'rtta qiymatidan chetlanish darajasi kichik, ammo o'rtta qiymatdan kichik bo'lmagan qiymatlarni ajratamiz (ostkchi chiziq bilan belgilangan). Ushbu belgilashlarni kiritamiz, ya'ni $Y_{N_1}^{(j)}$ - j-tarmoqdagi resurs intensivligi asosida ishlab chiqarishning o'rtta qiymatidan chetlanish darajasi kichik, ammo o'rtta qiymatdan kichik bo'lmagan, $Y_{N_2}^{(j)}$ - j-tarmoqdagi resurs intensivligi asosida ishlab chiqarishning o'rtta qiymatidan chetlanish darajasi katta hisoblangan qiymatlar bo'lsin. Bu yerda j – tarmoq belgisi: 1-paxta-to'qimachilik, 2-meva-sabzavotchilik, 3-g'allachilik tarmog'iga mos keladi. U holda $Y_{N_1}^{(j)}$ ko'rsatkichlarni barqaror, $Y_{N_2}^{(j)}$ ko'rsatkichlarni tebranma o'zgaruvchan deb qabul qilamiz. Mazkur ko'rsatkichlarning vazn ulushlari quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi

$$w_1^{(j)} = \left(\prod_1^a \frac{Y_{N_1}^{(j)}}{\sum Y_{N_1}^{(j)}} \right)^{1/a}, \quad w_2^{(j)} = \left(\prod_1^b \frac{Y_{N_2}^{(j)}}{\sum Y_{N_2}^{(j)}} \right)^{1/b} \quad (28)$$

Ushbu model natijalari mintaqa agroklastar tizimida tarmoqlararo salohiyat indeksining mezon ko'rsatkichlarini hisoblashga imkon beradi, ya'ni

$$SI_1^{(j)} = \frac{w_1^{(j)}}{w_1^{(j)} + w_2^{(j)}}, \quad SI_2^{(j)} = \frac{w_2^{(j)}}{w_1^{(j)} + w_2^{(j)}} \quad (29)$$

Bu yerda $SI_1^{(j)}$ – j-tarmoqning agroklastar tizimida tarmoqlararo salohiyat indeksining quyi chegarasi, $SI_2^{(j)}$ – j-tarmoqning agroklastar tizimida tarmoqlararo salohiyat indeksining yuqori chegarasini ifoda etadi. (28) va (29) formaulalar yordamida hisoblashni amalga oshiramiz (3-jadval).

3-jadval.

Qashqadaryo viloyati agroklastar tizimida tarmoqlararo salohiyat indeksining samaradorlik mezonlari²⁰

(j)	SI va uning tarkibiy ko'rsatkichlari						Mezon ko'rsatkichlari	
	$\sum Y_{N_1}^{(j)}$	$\sum Y_{N_2}^{(j)}$	$w_1^{(j)}$	$w_2^{(j)}$	$SI_1^{(j)}$	$SI_2^{(j)}$	Qiyi chegara	Yuqori chegara
1	434392,6	1140183,6	0,2226	0,2400	0,4813	0,5187		
2	102451,7	102041,1	0,1891	0,4051	0,3183	0,6817	0,308	0,659
3	60589,2	22877,7	0,1092	0,4636	0,1907	0,8093		

²⁰ Muallif tomonidan mustaqil hisoblab chiqilgan

Natijada mintqa agroklaster tizimida tarmoqlararo ishlab chiqarish salohiyati indeksining ($SI \leq 0,31$) past, ($0,31 < SI \leq 0,66$) o'rtacha, ($SI > 0,66$) yuqori samaradorlik mezonlariga ega bo'lamiz. Ushbu mezonga asosan, agroklaster tarmoqlarida past rivojlanishga ega klasterlarni va bunga sabab bo'layotgan R to'plam omillarini aniqlaymiz.

Xususan, ishlab chiqarish intensivligi bo'yicha past salohiyatga ega klasterlar paxta-to'qimachilik tarmog'ida 47,4 foizni, meva-sabzavotchilik tarmog'i bo'yicha 42,9 foizni, g'allachilik tarmog'i bo'yicha 44 foizni tashkil etmoqda.

Agroklasterlarning ishlab chiqarish intensivligi bo'yicha past salohiyatga ega bo'lishida asosan, investitsiya samaradorligining pastligi sabab bo'lmoqda. Chunki, past salohiyat indeksiga ega klasterlarning 80,8 foizida investitsiyadan foydalanish talab darajasida emas (4-jadval).

4-jadval.

Qashqadaryo viloyati agroklaster tarmoqlarida ishlab chiqarish intensivligi bo'yicha past salohiyatga ega klasterlarning ko'rsatkichlari²¹

Agroklaster nomi	Salohiyat indeksi	Ko'rsatkichlar					
	SI	R ₁	R ₂	R ₃	R ₄	R ₅	R ₆
Paxta-to'qimachilik klaster tarmog'i⁹							
Kitobipyigiruv MChJ	0,26706	M	M	M	M	+	+
Cluster Khilal MChJ	0,30119	M	M	+	M	+	+
Naxshab Tex Group MChJ	0,27253	M	M	+	M	+	M
Koson Baxt Textel MChJ	0,25017	M	M	+	M	M	+
Bunyodkor MChJ	0,26388	M	M	M	+	+	M
Qamashi Tekstil MChJ	0,29514	M	M	+	+	+	M
Oqsaroy textel MChJ	0,26318	M	M	+	+	M	M
Chiroqchi klaster MChJ	0,17154	M	M	M	+	M	M
Oqsaroy klaster MChJ	0,22512	M	M	M	+	+	M
Meva-sabzavotchilik klaster tarmog'i⁶							
Agro Vostok MCHJ	0,30358	M	+	+	M	+	M
Agro Ta'minot Obod MCHJ	0,19371	M	M	M	M	+	M
Muxammad Nazar Qodir MCHJ	0,29116	+	+		+	M	M
Mustafo Turayevich F.X	0,23149	M	M	+	+	M	M
Shahrisabz tomorqa xizmati MCHJ	0,24106	M	M	+	+	M	M
Arsenal Nur Baraka MCHJ	0,25394	+	M	M	M	M	+
G'allachilik klaster tarmog'i¹¹							
"Agro Don Turkiston klasteri" MCHJ	0,28035	+	+	M	+	M	M
"Ko'xinur agro don klasteri" MCHJ	0,29273	+	+	M	+	M	M
"Qarshi Don Agro" MCHJ	0,30196	M	M	M	+	+	+
"Qamashi oltin boshqoq agrocluster" MCHJ	0,27113	M	+	M	+	M	M
"Boxoriston Agro Don" MCHJ	0,25416	M	M	M	+	+	+
"Mirishkor Textile Group Cluster" MCHJ	0,29384	M	+	M	M	+	+
"Turon asl don cluster" MCHJ	0,15265	M	M	M	M	M	+
"Kesh Agro Oltin Boshqoq" MCHJ	0,12146	M	M	M	M	+	M
"Chiroqchi klaster g'alla" MCHJ	0,29279	M	M	M	+	+	+
"Yakkabog' Boshqoqlari Agroklaster" MCHJ	0,10832	M	+	M	M	M	M

²¹ Muallif tomonidan tuzilgan

"Elshod Agro Don" MCHJ	0,28175	+	M	+	+	M	M
------------------------	---------	---	---	---	---	---	---

Bu yerda **M** – resurs sarfining ortiqcha ekanligini, **+** - resurs sarfining meyyorda ekanligini bildiradi.

Shuningdek, mehnat unimdorligi past klasterlar 73,1 foiz, yerdan foydalanish samaradorligi past klasterlar 57,7 foiz, suvdan foydalanish samaradorligi past klasterlar 34,6 foiz, texnika xizmati bilan bog‘liq iqtisodiy optimallashtirmagan klasterlar 50 foiz, energiya samaradorligi past klasterlar 65,4 foizni tashkil etadi.

Paxta-to‘qimachilik hamda g‘allachilik klasterlarida investitsiya oqimini optimallashtirish, regulyator tizimini lyustratsiya qilish, innovatsion yondoshuvlar asosida mahsulot tannarxini pasaytirish, bunda xom ashyo, operatsion hamda marketing xarajatlarini kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur. G‘allachilik klasterlarida yerdan foydalanish tizimini chuqur isloh qilish kerak. Birinchi navbatda hosildorlikni oshirish talab etiladi. Keyingi asosiy muammo energiya samaradorligining ta‘minlanmayotganligidir. Bu borada ayniqsa, paxta-to‘qimachilik va meva-sabzavotchilik klaster tarmog‘ida holat qoniqarli emas.

Dissertatsiyaning **“Agroklaster tizimini optimal modellar asosida rivojlantirishning metodologik yo‘nalishlari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida innovatsion agroklaster tizimini shakllantirishda hududning innovatsion reseptivlik salohiyatini oshirishning hamda intensiv ishlab chiqarish jarayonlarining optimal modellari ishlab chiqildi. Tarmoqlararo ishlab chiqarish intensivlik koeffitsiyentining muvozanat, optimal, haqiqiy holat tenglamalari tuzildi. Klasterlashtirilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish ko‘rsatkichlarining prognoz parametrlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotimizda hududning innovatsion reseptivlik salohiyatini oshirishning optimal modellari hudud muhitining siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, ijtimoiy, ekologik, geografik qatlamlari kesimida ishlab chiqildi. Xususan, siyosiy qatlamning innovatsiyalarni o‘tkazuvchanlik koeffitsiyentini hisoblash modeli to‘rtta komponentli ishlab chiqildi (5-jadval).

5-jadval.

Qashqadaryo viloyati siyosiy mihitining innovatsiyalarni o‘tkazuvchanlik darajasini baholash modeli ²²

№	Ko‘rsatkich nomlanishi	Model
1	Innovatsion infratuzilma yaratishda davlat siyosati samaradorligi ko‘rsatkichi	$k_{DSS1} = \frac{a_{11}u_{11} + a_{12}u_{12} + a_{13}u_{13}}{b_{11}v_{11} + b_{12}v_{12} + b_{13}v_{13}} \cdot \frac{u_1^*}{v_1^*}$
	Bu yerda: u_{11} - ilmiy-tadqiqot markazlari, texnoparklar va inkubatorlar bilan chuqur integratsiyalashgan agroklasterlar soni, u_{12} - yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqaruvchi agroklasterlar soni, u_{13} - faoliyatining barcha bo‘g‘inlariga raqamli texnologiyalar joriy qilingan agroklasterlar soni, u_1^* - jami klasterlar soni, v_{11} - agroklaster tizimida ilmiy-tadqiqot markazlari, texnoparklar va inkubatorlarni tashkil etish, v_{12} - klaster ichida ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish va tadqiqotlar o‘tkazish, v_{13} - raqamli texnologiyalar va aqlli qishloq xo‘jaligi platformalarini rivojlantirish bo‘yicha davlat xarajatlari, v_1^* - klasterlarning jami harajatlari bo‘lib, so‘ngi 2018-2024 yillikning o‘rta qiymatlarida ifodalanadi. a_{1i} , b_{1i} - vazn koeffitsiyentlari - umumiylikdagi tarkibiy ulush indekslaridir	
2	Tarmoqlararo integratsiya va kooperatsiyani shakllanishida davlat siyosati samaradorligi ko‘rsatkichi	$k_{DSS2} = \frac{a_{21}u_{21} + a_{22}u_{22} + a_{23}u_{23}}{b_{21}v_{21} + b_{22}v_{22} + b_{23}v_{23}} \cdot \frac{u_2^*}{v_2^*}$
	Bu yerda: agroklasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan u_{21} - qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, u_{22} - sanoat mahsulotlari hajmi, u_{23} - xizmat ko‘rsatish hajmi, u^* - agroklasterlarning ishlab chiqarish hajmi, v_{21} , v_{22} , v_{23} - mos ravishda tarmoqlarda davlat xarajatlari, $v_2^* = v_1^*$ bo‘lib, so‘ngi 2018-2024 yillikning o‘rta qiymatlarida ifodalanadi. a_{2i} , b_{2i} - vazn koeffitsiyentlari	

²² Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan

3	Eksport strategiyasi va moliyalashtirish mexanizmidagi davlat siyosati samaradorligi ko'rsatkichi	$k_{DSS3} = \frac{a_{31}u_{31} + a_{32}u_{32} + a_{33}u_{33}}{b_{31}v_{31} + b_{32}v_{32} + b_{33}v_{33}} \cdot \frac{u_3^*}{v_3^*}$
	Bu yerda: u_{31} – agroklasterning eksporti hajmi, u_{32} – tizimda xususiy sektor investitsiyalari hajmi, u_{33} – agroklasterning tizimida kapitalga o'zlashtirilgan xalqaro tashkilot investitsiyalari hajmi, u_3^* – agroklasterning tizimida eksportga yunaltilgan nodavlat sektor investitsiyalari, v_{31} – logistika va transport infratuzilmasini takomillashtirishda davlat xarajatlari, v_{32} – tizimda davlat dasturi asosida ajratilgan investitsiyalar hajmi, v_{33} – davlatning moliyalashtirish dasturlari bo'yicha grantlar hajmi, v_3^* – agroklasterning tizimida eksportga kiritilgan davlat sektori investitsiyalari bo'lib, 2018-2024 yillikning o'rtacha qiymatlarida ifodalanadi. a_{3i} , b_{3i} – vazn koeffitsiyentlari - umumiylikdagi tarkibiy ulush indekslaridir	
4	Kadrlar tayyorlash va rivojlantirishda davlat siyosati samaradorligi ko'rsatkichi	$k_{DSS4} = \frac{a_{41}u_{41} + a_{42}u_{42} + a_{43}u_{43}}{b_{41}v_{41} + b_{42}v_{42} + b_{43}v_{43}} \cdot \frac{u_4^*}{v_4^*}$
	Bu yerda: u_{41} – agroklasterning tizimida salohiyatli (oliy ma'lumotli) kadrlar soni, u_{42} – tizimda malaka oshirgan xodimlar soni, u_{43} – xorijda malaka oshirgan va tahsil olgan xodimlar soni, u_4^* – agroklasterning tizimidagi jami xodimlar soni, v_{41} – salohiyatli kadrlar tayyorlashda davlat xarajatlari, v_{42} – mahalliy malaka oshirish tizimiga davlat tomonidan imtiyozli investitsiyalar, v_{43} – xorijiy malaka oshirish tizimiga davlat tomonidan kiritilgan investitsiyalar, v_4^* – agroklasterning tizimida xodimlarni rivojlantirish jami xarajatlari bo'lib, 2018-2023 yillikning o'rtacha qiymatlarida ifodalanadi. a_{4i} , b_{4i} – vazn koeffitsiyentlari – umumiylikdagi tarkibiy ulush indekslaridir	

Ushbu ko'rsatkichlardan foydalanib, siyosiy qatlamning innovatsiyalarni o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti (k_{DSS})ni quyidagi formula bo'yicha aniqlaymiz

$$k_{DSS} = \left(\prod_{j=1}^4 k_{DSS(j)} \right)^{0,25} \quad (30)$$

Tuzilgan modellar asosida quyidagi hisoblashlarni bajaramiz

$$k_{DSS1} = \frac{0,105 \cdot 7 + 0,075 \cdot 5 + 0}{0,124 \cdot 29537,34 + 0,035 \cdot 8439,24 + 0,091 \cdot 21801,37} \cdot \frac{67}{239111,8} = 0,664$$

$$k_{DSS2} = \frac{0,668 \cdot 9179,04 + 0,298 \cdot 3980,4 + 0,043 \cdot 584,36}{0,53 \cdot 126588,6 + 0,62 \cdot 147686,78 + 0,24 \cdot 56964,87} \cdot \frac{239111,8}{2715056} = 0,741$$

$$k_{DSS3} = \frac{0,757 \cdot 2055229 + 0,2 \cdot 541613 + 0,04 \cdot 118214}{0,47 \cdot 105490,5 + 0,7 \cdot 156829,21 + 0,003 \cdot 703,27} \cdot \frac{239111,8}{17659} = 0,871$$

$$k_{DSS4} = \frac{0,42 \cdot 7416 + 0,12 \cdot 2120 + 0,00033 \cdot 6}{0,48 \cdot 346,3056 + 0,14 \cdot 101,006 + 0,25 \cdot 180,368} \cdot \frac{225046,4}{721,47} = 0,610$$

$$k_1 = k_{DSS} = \left(\prod_{j=1}^4 k_{DSS(j)} \right)^{0,25} = (0,664 \cdot 0,741 \cdot 0,871 \cdot 0,610)^{0,25} = 0,715$$

Ko'rish mumkinki, mintaqada innovatsiyalarni rag'batlantirishda siyosiy muhitning salohiyati o'rta darajadan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lmoqda. Bu jihat agroklasterning tizimini rivojlantirishda muhim omil bo'lib, u huquqiy asoslarni mustahkamlashda hamda muhit qatlamlarining innovatsion o'tkazuvchanligini oshirishda hal qiluvchi rolga ega.

Barcha qatlamlar kesimida quyidagi modellar ishlab chiqildi (6-jadval).

6-jadval.

Qashqadaryo viloyatida huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, ijtimoiy, ekologik, geografik muhitning innovatsiyalarni o'tkazuvchanlik darajasini baholash modeli ²³

№	Ko'rsatkich nomlanishi	Model
1	Huquqiy qatlamning innovatsiyalarni o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti	$\ln \left(\frac{P}{1-P} \right) = -41,4 + 2,4 \cdot L_1 + 0,2 \cdot L_2 + 2,8 \cdot L_3 + 0,2 \cdot L_4 + 2,7 \cdot L_5$
	L_1 - normativ-huquqiy baza: respondentlarning huquqiy asoslarning innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qanchalik mos kelishiga bergan bahosi (5 ballik Likert shkalasi), L_2 - huquqni qo'llash amaliyoti: davlat organlari yoki tartibga soluvchi tashkilotlarning klaster a'zolariga innovatsion faoliyatda yordam berish amaliyoti (Respondentlarning qoniqish darajasi, foizda), L_3 - huquqiy barqarorlik: normativ-huquqiy hujjatlarning doimiyliigi va o'zgaruvchanligi bo'yicha respondentlarning bahosi (Likert shkalasi), L_4 - innovatsiyalarni rivojlantirish uchun mavjud bo'lgan davlat subsidiyalari, grantlar yoki soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyati (Respondentlarning qoniqish darajasi, foizda), L_5 - huquqiy muhit bo'yicha ma'lumotlarning ochiqliigi va ularga kirish osonligi (respondentlarning axborot olishdagi qiyinchilik darajasiga bergan bahosi)	

²³ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan

	Likert shkalasida), P - agroklaster tizimida mavjud huquqiy muxitning innovatsion rivojlanishga moyillik ehtimoli	
2	Iqtisodiy qatlamning innovatsiyalarni o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti	$\ln\left(\frac{P}{1-P}\right) = -83,2 + 4,8 \cdot E_1 + 3,1 \cdot E_2 + 5,3 \cdot E_3 + 0,8 \cdot E_4 + 5,0 \cdot E_5$
	E_1 - bozor infratuzilmasi: respondentlarning bozor infratuzilmasining innovatsion rivojlanishiga mos kelishiga bergan bahosi (5 ballik Likert shkalasida); E_2 - innovatsion infratuzilmani moliyalashtirish: agroklasterlar uchun tadqiqot va tajriba ishlari o'tkazadigan markazlarga mablag' ajratish, innovatsion startaplarni rivojlantirish va yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish uchun platformalar yaratish, aqlli qishloq xo'jaligi tizimlarini joriy qilish uchun moliyaviy resurslar ajratish darajasiga respondentlarning bahosi (5 ballik Likert shkalasida); E_3 - raqobat: adolatli raqobat muhitining yaratilganligi bo'yicha respondentlarning bahosi (5 ballik Likert shkalasida), E_4 - resurslardan samarali foydalanish (respondentlarning qoniqish darajasi, foizda), E_5 - iqtisodiy xavflarni kamaytirishga qaratilgan innovatsion mexanizmlarning samaradorligi (respondentlarning bahosi 5 ballik Likert shkalasida), P - agroklaster tizimidagi mavjud iqtisodiy jarayonlarning innovatsion rivojlanishga moyillik darajasining ehtimoli	
3	Moliyaviy qatlamni innovatsiyalarni o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti	$\ln\left(\frac{P}{1-P}\right) = -69,6 + 5,7 \cdot F_1 + 6,1 \cdot F_2 + 5,5 \cdot F_3 + 5,2 \cdot F_4 + 5,6 \cdot F_5$
	F_1 - davlat moliyalashtirish dasturlarining innovatsion rivojlanishga mos kelish darajasi; F_2 - agroklaster tizimiga xususiy sektorni jalb qilish va tashqi moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorlik darajasi; F_3 - sug'urta va xatarlarni boshqarish tizimi bo'yicha respondentlarning bahosi, F_4 - moliyaviy oqimlarni nazorat qilish (moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanishni ta'minlash), F_5 - raqamli moliyaviy tizimlarning joriy etilganligi va innovatsion mahsulotlar va xizmatlarni tijoratlashtirish holati (barcha o'lchovlar respondentlarning bahosiga nisbatan 5 ballik Likert shkalasida), P - agroklaster tizimidagi moliyaviy mexanizmlarning innovatsion rivojlanishga moyillik darajasining ehtimoli	

6-jadval davomi.

N _o	Ko'rsatkich nomlanishi	Model
4	Texnologik qatlamning innovatsiyalarni o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti	$\ln\left(\frac{P}{1-P}\right) = -71,4 + 6,2 \cdot T_1 + 5,1 \cdot T_2 + 5,4 \cdot T_3 + 6,5 \cdot T_4 + 5,6 \cdot T_5$
	T_1 - agroklaster tizimida raqamli texnologiyalarni joriy qilish holati va innovatsion ishlab chiqarish texnologiyalari darajasi; T_2 - tizimning biotexnologik rivojlantirish darajasi; T_3 - energiya tejoychi, suv va yer resurslaridan foydalanish texnologiyalari samaradorligi, T_4 - innovatsion texnologiyalarni sinovdan o'tkazish va tajribalarni amalga oshirish uchun infratuzilma, texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha qo'llab-quvvatlash tizimlari hamda mahsulotni qayta ishlash texnologiyalari bo'yicha respondentlarning bahosi (5 ballik Likert shkalasida), T_5 - smart logistika tizimlari, tarmoq va ma'lumotlar bazalari holati bo'yicha respondentlarning bahosi (barcha o'lchovlar respondentlarning bahosiga nisbatan 5 ballik Likert shkalasida), P - agroklaster tizimidagi texnologiyalar innovatsion rivojlanishga moyillik darajasining ehtimoli	
5	Ijtimoiy qatlamning innovatsiyalarni o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti	$\ln\left(\frac{P}{1-P}\right) = -50,8 + 4,5 \cdot S_1 + 4,0 \cdot S_2 + 3,2 \cdot S_3 + 3,7 \cdot S_4 + 5,1 \cdot S_5$
	S_1 - agroklaster tizimining bandlikni oshirish va aholini ish bilan ta'minlash salohiyati, S_2 - agroklaster tizimida ta'lim va kadrlar malakasini oshirish holati, S_3 - tizimning hududiy infratuzilmani rivojlantirish salohiyati va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash darajasi, S_4 - qishloq hududlaridagi aholini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali ularning daromadini oshirish, aholi uchun qo'shimcha xizmatlar taqdim etish, mahalliy hamkorlikni rivojlantirish darajasi, S_5 - innovatsiyalarni qabul qilish madaniyatini shakllantirish holati (barcha o'lchovlar respondentlarning bahosiga nisbatan 5 ballik Likert shkalasida), P - agroklaster tizimidagi ijtimoiy holatining innovatsion rivojlanishga moyillik darajasining ehtimoli	
6	Ekologik qatlamning innovatsiyalarni o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti	$\ln\left(\frac{P}{1-P}\right) = -69,2 + 5,6 \cdot C_1 + 5,5 \cdot C_2 + 5,3 \cdot C_3 + 5,9 \cdot C_4 + 5,7 \cdot C_5$
	C_1 - agroklaster tizimining tabiiy resurslardan samarali foydalanish, resurslarni tejash va optimallashtirish darajasi; C_2 - agroklaster tizimida atrof-muhitni muhofaza qilish holati; C_3 - tizimning ekologik toza texnologiyalarni qo'llash, raqamli ekologik monitoring tizimlari, ekologik standartlar va talablarining joriy etilish holati, C_4 - ekotizimni tiklash va saqlash, barqaror chiqindi boshqaruv darajasi, C_5 - klimat o'zgarishiga moslashuv va uning oldini olish darajasi (barcha o'lchovlar respondentlarning bahosiga nisbatan 5 ballik Likert shkalasida), P - agroklaster tizimi ekologik siyosatining innovatsion rivojlanishga moyillik darajasining ehtimoli	
7	Geografik qatlamning innovatsiyalarni o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti	$\ln\left(\frac{P}{1-P}\right) = -52,3 + 3,4 \cdot G_1 + 3,6 \cdot G_2 + 5,0 \cdot G_3 + 4,9 \cdot G_4 + 4,4 \cdot G_5$
	G_1 - agroklasterlarni rivojlantirish dasturlarida hududning tabiiy-iqlim sharoitlari, xususiyatlarini, geografik joylashuvning iqtisodiy ahamiyati e'tiborga olinganlik holati, G_2 - tizimda agroklasterlarning ixtisoslashuv optimalligi ta'minlanish darajasi, G_3 - ekologik-geografik omillarning agroklasterlar faoliyati samaradorligiga ta'sirini uzluksiz tahlil etish mexanizmining amliyotga joriy etilganlik holati, G_4 - raqamli xaritalash va geografik axborot tizimlari (GIS) joriy etilishi va ularning samaradorlik darajasi, G_5 - hududning iqtisodiy-geografik imkoniyatlari, resurslarni hududiy diversifikatsiya qilish, geografik raqobatbardoshlik darajasi (barcha o'lchovlar respondentlarning bahosiga nisbatan 5 ballik Likert shkalasida), P - agroklaster tizimining hududlar iqtisodiy-geografik xususiyatlari va imkoniyatlariga asoslangan holda innovatsion rivojlanishga moyillik darajasining ehtimoli	

7-jadval.

Qashqadaryo viloyatida huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, ijtimoiy, ekologik, geografik mihitining innovatsiyalarni o‘tkazuvchanlik darajalari²⁴

Belgi	Ifodasi	Qatlamlar						
		Huquqiy	Iqtisodiy	Moliyaviy	Texnologik	Ijtimoiy	Ekologik	Geografik
Y	$\ln\left(\frac{P}{1-P}\right)$	0,93664	0,13044	-0,9958	-0,66997	0,0769	-1,61667	1,1123
$P \rightarrow k$	$\frac{\exp(-Y)}{1 + \exp(-Y)}$	0,71842	0,53256	0,26976	0,338504	0,51922	0,16567	0,7524
Respodentlarning talqini bo‘yicha o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti		0,63	0,50	0,32	0,39	0,43	0,48	0,58

Modellashtirish natijalari bo‘yicha yuqori o‘tkazuvchanlik siyosiy, huquqiy, geografik qatlamlarga, o‘rta darajalar iqtisodiy, ijtimoiy qatlamlarga, quyi darajalar moliyaviy, texnologik, ekologik qatlamlarga mos keladi. Olingan natijalar bo‘yicha innovatsion agroklasterni shakllantirishda hududning innovatsion reseptivlik salohiyat ko‘rsatkichini hisoblaymiz


$$IK = \left(\prod_{j=1}^8 k_j\right)^{0,125} = (0,72 \cdot 0,72 \cdot 0,53 \cdot 0,27 \cdot 0,34 \cdot 0,52 \cdot 0,17 \cdot 0,75)^{1/8} = 0,45$$

Demak, innovatsion agroklasterni shakllantirishda hududning innovatsion reseptivlik salohiyati o‘rta darajaga yaqin (nisbatan kichik). Mintaqada moliyaviy va ekologik muammolar mavjudligi, texnologik rivojlanish nisbatan orqada ekanligi innovatsion salohiyatning yetarli darajada emasligiga sabab bo‘lmoqda. Bu jihat innovatsion agroklasterni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, hamda agroklasterni tizimidagi innovatsion ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishda muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu boisdan, tadqiqotimizda agroklasterni tarmoqlarida an’anaviy va innovatsion ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish, tizimning texnologik salohiyatini ishlab chiqarish intensivligi ko‘rsatkichi yordamida oshirish, optimallashtirilgan ishlab chiqarish natijalarining istiqboldagi o‘zgarishlarini aniqlash va muayyan iqtisodiy-texnologik sharoitlar talabini o‘rnatish masalasi ko‘rib chiqildi. Xususan, yuqorida keltirilgan (6)-(7) modellarni parametrallashtirish natijasida (9)-(13) modellar bilan aniqlangan matematik dasturlash masalasining yechimi sifatida quyidagi natijalar kelib chiqadi.

Paxta-to‘qimachilik klaster tarmog‘ida $a_1^{(T)} = 0,422$; $a_1^{(I)} = 0,453$ tengliklar, ishlab chiqarish intensivligi koeffitsiyenti haqiqiy, muvozanat, optimal qiymatlari o‘rtacha 0,553 ga mos keladi. Ishlab chiqarish xarajatlari uchun $C_2^{(I)} \approx 0,559 \cdot C_2^{(T)}$ munosabat o‘rinli bo‘ladi. G‘allachilik klaster tarmog‘ida muvozanat holat $Q_2^{(I)} \approx 0,521 \cdot Q_2^{(T)}$ munosabatda kuzatiladi. Bu yerda $a_2^{(T)} = 0,411$; $a_2^{(I)} = 0,452$ tengliklar hamda, intensivlik koeffitsiyenti haqiqiy, muvozanat, optimal qiymatlari o‘rtacha 0,533 ga mos keladi. Ishlab chiqarish xarajatlari uchun $C_2^{(I)} \approx 0,521 \cdot C_2^{(T)}$ munosabat mos keladi. Meva-sabzavotchilik klaster tarmog‘ida $Q_3^{(I)} \approx 0,524 \cdot Q_3^{(T)}$ munosabatda muvozanat holat kuzatiladi. Bu yerda $a_3^{(T)} = 0,382$; $a_3^{(I)} = 0,413$ tengliklar hamda, intensivlik koeffitsiyenti haqiqiy, muvozanat, optimal qiymatlariga o‘rtacha 0,527

²⁴ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan


miqdor to'g'ri keladi. Ishlab chiqarish xarajatlari o'zaro ushbu $C_3^{(I)} \approx 0,543 \cdot C_3^{(T)}$ munosabat bilan bog'lanadi.



8-rasm. Qashqadaryo viloyati klaster tarmoqlari ishlab chiqarish intensivlik koeffitsiyentlarining 2025-2030 yillar bo'yicha ko'rsatkichlari²⁵

Demak, Qashqadaryo viloyati klaster tarmoqlarida kelgusi 5 yillikda yalpi ishlab chiqarish tarkibida innovatsion ishlab chiqarish hajmini kamida 50 foizga yetkazish, bunda innovatsion ishlab chiqarish xarajatlarini jami ishlab chiqarish xarajatlarning ko'pi bilan 55 foizidan oshmasligini ta'minlash tizimning optimal ishlab chiqarish holatini belgilab beradi. Tarmoqlarda ishlab chiqarish intensivligi koeffitsiyentining (0,55; 0,52; 0,52) haqiqiy, (0,55; 0,54; 0,53) muvozanatlashgan va (0,56; 0,54, 0,53) optimal ko'rsatkichlariga erishish maqsadga muvofiq bo'ladi. Natijada, agroklasterning iqtisodiy samaradorlik darajasi ortadi. Mazkur jarayonni amalga oshirish mexanizmi quyidagicha taklif etildi (9-rasm).

²⁵ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan



9-rasm. Innovatsiyalarga asoslangan agroklasterlarning iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish mexanizmi²⁶

Mazkur mexanizm ishlab chiqarish intensivligini innovatsiyalarga asoslanishini kafolatlaydi, intensivlik koeffitsiyentining 0,5 ga yaqin qiymatlarida innovatsion ishlab chiqarish ulushining 50 foizga yaqinlashishini ta'minlaydi. Natijada agroklasterlarning iqtisodiy samaradorlik darajasi oshadi.

Klasterlashtirilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari baholash va ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida tizimning quyidagi asosiy ko'rsatkichlari tanlab olindi. Xususan, *PHK* - paxta hosildorligi, s/ga; *GHK* - g'alla hosildorligi, s/ga; *QXM* - qishloq xo'jalik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm; *IDH* - intensiv usulda ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmi, mlrd so'm; *TMH* - to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm; *QIMS* - qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari, tonna; *EXP* – xom ashyo, qayta ishlangan va tayyor qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti, ming AQSH dollari; *IMP* – xom ashyo, qayta ishlangan va tayyor qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi, ming AQSH dollari; *IMH* - qishloq xo'jaligida innovatsion mahsulotlar hajmi, mlrd so'm; *STT* - suv tejoychi texnologiyalar joriy qilingan yer maydoni, ga; *LTM* - lazerli tekislangan yer maydoni, ga; *EES* – qishloq xo'jaligida elektr energetika sarfi, mln.kVt/soat; *QXB* - qishloq xo'jaligida bandlar soni, ming kishi; *SHD* - sug'oriladigan yer maydonining

²⁶ Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan

